

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!



Postda Ha nocty

O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri

2025-yil 17-iyul
payshanba

№ 29 (4723)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

■ YOSHLAR – YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI

YUKSAK ISHONCH NAMUNASI



– Muhtaram Prezident, sizga Yangi O'zbekistonda «Yangi Kamolon» mahallasi eng namunali mahalla bo'lishiga va'da beraman. O'zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilaman! – dedi muddatidan oldin kapitan unvonini olgan katta leytenant Nusratjon Ziyoratov.


Davlatimiz rahbarining Shayxontohur tumaniga tashrifi chog'ida samimiyat va ishonch to'la kechgan ushbu suhbat nafaqat Vatan osoyishtaligi yo'lida burchga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilayotgan har bir ichki ishlar organi xodimi, balki shu yurtida hukm surayotgan tinchlik atalmish ulug' ne'matni qadrlagan har bir yurtdoshimiz qalbida ajib hissiyot, ko'tarinki kayfiyat uyg'otgani rost.

Ayni paytda «Yangi Kamolon» mahallasidagi 21 ta ko'p qavatli uyda

6080 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahalla ahli xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish maqsadida profilaktika inspektori xonasida situatsion markaz tashkil etilgan. Unga ko'p qavatli uylarning yo'laklaridagi kuzatuv kameralari va ichki ishlar organlari tizimining xavfsizlik dasturlari bog'langan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida bu yil mahallada birorta ham jinoyat sodir etilmagan. Mazkur mahalla «yashil» toifada.

(Davomi 2-betda).

YOSHLAR – YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI

YUKSAK ISHONCH
NAMUNASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

– Profilaktika inspektorimiz Prezidentimizga «Islohotlar shtabi» faoliyati taqdimotida plansheti yordamida «Qalqon» dasturi asosida mahallamizdagi aholi tarkibi haqida batafsil ma'lumot olish mumkinligini ko'rsatib berdi, – deydi «Yangi Kamolon» mahallasi raisi Mahammadamin Ergashev. – Kelgusi yil jinoyat bo'lmasligi uchun qaysi xonadonda qanday ish qilinayotgani va qaysi xonadonda huquqbuzarlik yuz berishi mumkinligi haqida savollarga javoban mahallada bu borada muammo yo'qligini ta'kidladi.

hech kimga befarq emas-miz. Qolaversa, bu boradagi amaliy ishlarimizda birinchi navbatda kuzatuv kameralari, turli xavfsizlik dasturlari eng ishonchli vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqimizda «Kengashli to'y tarqamas» maqoli bejiz yaralmagan. Buni «Yangi Kamolon» mahallasi yettiligi faoliyati misolida ko'rishimiz mumkin. Zero, jonkuyarlik bilan amalga oshirilgan ishlar ibrat namunasi sifatida bo'y ko'rsataveradi.

– Prezidentimiz bilan kechgan suhbatni eslasam haligacha hayajonlanib ketaman, – deydi profilaktika inspektori, kapitan Nus-

xodimi bo'lishni orzu qilgan, – deydi Nematjon Ziyoratov. – Men bir umr tegirmonchilik ortidan tirikchilik qildim. Odamlarning dasturxonidagi issiq non-da hissam borligi uchun shukur qilaman. Farzandlarimni o'zlari qiziqqan kasbida mehnat qilib, yurtga nafi tegadigan insonlar bo'lishi uchun qo'llab-quvvatladim. Ishonasizmi, Yurtboshimiz bilan suhbat chog'ida o'g'limdagi qat'iyatni, unvoni oshganini ko'rib ko'zlarimda beixtiyor yosh qalqidi. Shunday farzand tarbiyalaganimdan quvondim. Har bir otaga el koriga yelka tutgan o'g'ildan faxrlanish nasib etsin.



Haqiqatan ham, mahallamiz ahli o'zaro ahil, mehr-oqibatli. Unda barchaning farovonlikda yashashi, avvalo, o'zimizga bog'liq. Biz mahalla yettiligi doirasidagi amaliy ishlarda shu aqidaga amal qilamiz. Ya'ni, mahallamizda begona yo'q va biz

ratjon Ziyoratov. Bu unvon kelgusidagi xizmatim uchun bildirilgan yuksak ishonch, deb bilaman. Bu ishonchni oqlash yo'lida sidqidildan xizmat qilaman.

– O'g'lim Nusratjon bolaligidan doim a'lo bahoga o'qigan, ichki ishlar organi

Farzandimga ko'rsatilgan e'tibor, otalarcha g'amxo'rlik uchun Yurtboshimizga, Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV
olgan suratlar.

JALOLIDDINNING
JASORATI

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid hujjatlar-ni sudga oshirish uchun hozirlayotgan katta leytenant Jaloliddin Sarimsoqov telefon qo'ng'irog'iga javob berishi bilanoq xavotirli ovoz eshitildi: «Qo'shnimiz uyda bo'lishi kerak edi, eshikni ochmayapti...».

Ayol gapini tugatar-tugatmas, profilaktika inspektori xizmat xonasidan chiqdi va ko'p o'tmay «Nexia»sida aytilgan manzilga yetib bordi. Darhaqiqat, uying eshigi qulf edi. Shu bois yon derazadan ichkariga qaradi. Xonada ikki o'smir yotardi. Ulardan birining og'zi atrofini ko'pik egalagan edi.

Gap nimadaligini tushungan Jaloliddin Sarimsoqov darhol eshikni buzdi. Ichkariga kirib, oshxonaga yo'naldi va gazni o'chirdi. Derazalarni ocha boshlaganida esa xonalar-dan birida uy egasi behush yotganiga ko'zi tushdi. U jabrlanuvchilarning yuziga suv sepishga kirishdi. Ko'p o'tmay qonun himoyachisining chaqirig'i asosida yetib kelgan tez tibbiy yordam shifokorlari jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatdilar. Uch-to'rt kun deganda ayol va ikki o'smir o'ziga keldi.

Ma'lum bo'lishicha, uy egasi Anorxol Boboyeva tush payti mizg'ib olishga qaror qilgan. Boshqa xonada esa 15 yoshli o'g'li va uning sinfdoshi bo'lgan...

Arnasoy tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Jaloliddin Sarimsoqov shu tariqa uch kishining hayotini saqlab qoldi. Agar qo'shnisida kuzatilgan shubhali holat haqida fuqaro Buvaliya Mamadiyeva xabar bermaganida, profilaktika inspektori jadal harakat qilmaganida, insonlar o'limi bilan bog'liq fojia va yong'in kelib chiqishi hech gap emasdi.

– O'zimning, o'g'lim va uning o'rtog'ining hayotini saqlab qolgani uchun profilaktika inspektorimizdan cheksiz minnatdorman, – deydi Anorxol Boboyeva. – Odamlarning tinchligini asrayotgan, elga astoydil xizmat qilayotgan barcha ichki ishlar organlari xodimlari baraka topishsin.

5 ming 168 nafar aholi istiqomat qiladigan G'afur



G'ulom nomli mahalla osoyishtaligini ta'minlashga mas'ul katta leytenant Jaloliddin Sarimsoqov qonunbuzarlikning oldini olish borasida ham yuqori natijalarni qayd etmoqda. Bunga ichki ishlar organlari hisobida turadigan 65 nafar, probatsiya xizmati nazorati ostidagi 14 nafar, muqaddam sudlangan 24 nafar, ichkilikbozlikka ruju qo'ygan 2 nafar hamda 2 ta nizoli oila vakillarini doimiy e'tiborda ushlash orqali erishyapti. Xuddi shuningdek, u joriy yilning o'tgan davrida 72 kishiga moddiy, huquqiy va psixologik ko'mak ko'rsatish bo'yicha mas'ullarga xulosalar kiritdi. 106 ta huquqbuzarlikni aniqlab, aybdorlarning javobgarlikka tortilishini ta'minladi.

Aytgancha, lavhamiz qahramoni mohir dzyudochi bo'lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari o'rtasida o'tkazilayotgan musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Qisqasi, katta leytenant Jaloliddin Sarimsoqov har jabhada hamkasblariga ibrat ko'rsatayotir.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.



AYOL VA JAMIYAT

KASB TANLASHDA ADASHMAGAN

Qo'ng'iroq tumanida tug'ilib voyaga yetgan Nazira bolaligidanoq otasi kabi ichki ishlar organi xodimi bo'lishni orzu qilardi. Ushbu orzu-sini amalga oshirish maqsadida maktabda ijtimoiy fanlarga alohida mehr qo'yib, a'lo baholariga o'qidi. So'ng Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti yuridik fakultetida tahsil oldi. Dorilfununni tugallab, otasiga ichki ishlarda ishlash istagini aytganida, Yedilxan og'a: «Bu sohada ishlash oson emas, uning mas'uliyati juda og'ir, qizim», – deya uncha ro'yxushlik bermadi.

Nazira uch yilga yaqin davlat tashkilotlaridan birida yurist maslahatchi sifatida ishladi. Qizining ishiga puxtaligi, o'ziga talabchanligini ko'rgan ota nihoyat rozi bo'ldi. Nazira Bekimbetova tizimdagi ilk faoliyatini 2013-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV 2-sonli Tergov hibsonasida boshladi. 2019-yildan buyon esa Qorao'zak tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha



katta inspektori lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

O'tgan vaqt mobaynida hududdagi xotin-qizlar o'rtasida turli huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, joriy yilning birinchi yarmida 78 ta xonadon o'rganib chiqildi. O'rganishlar davomida turli masalalarga doir 25 tadan ortiq muammo aniqlanib, bugunga qadar 22 tasi ijobiy hal etildi.

Berdag nomidagi ovul fuqarolar yig'inida o'tkazilgan o'rganishlar natijasida bir ayolning yashash

sharoiti og'ir, turmush o'rtog'i 2-guruh nogironi ekanligi, shuningdek, 2 nafar farzandining shu kunga qadar identifikatsiya ID-kartalari olmaganligi ma'lum bo'ladi. Mazkur masala tuman hokimligiga yetkazilib, homiylar tomonidan ushbu oilaga yangi uy qurib berildi. Ayolning bir farzandiga mahalla, ikkinchisiga esa shaxsan Nazira Bekimbetova hisobidan shaxsini tasdiqlovchi hujjati uchun to'lov to'lab berildi.

Shuningdek, o'tgan vaqt mobaynida profilaktik hisobda turuvchi hamda notinch oilalarda tushuntirish ishlari olib borilishi

natijasida xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatchilik holati sodir bo'lmadi. Bundan tashqari, 51 nafar tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizga himoya orderi berildi. Mazkur order talablariga rioya etmagan qonunbuzarlarga nisbatan tegishli jazo choralari tayinlandi.

– Ayollar tabiatan hissiyotga tezroq beriluvchan bo'ladi. Xizmat faoliyatim davomida bunga ko'p bora guvoh bo'lganman. Lekin bu ular har doim ham aybdor degani emas. Chunki ayrim ayollar ichida saqlab kelayotgan dard-u tashvish uncha-muncha erkakning qaddini bukishi mumkin. Shu bois xonadonlardagi o'rganishlarda birinchi navbatda oilada muammolarga e'tibor qaratib, ularni imkon doirasida hal etish chorasini qidiraman. Tashvishlari arigan xotin-qizlarning yuzidagi xursandchiligini ko'rsam, kasbimni to'g'ri tanlaganimdan, boshqalarga yordamim tekkanidan faxr hissini tuyaman, – deydi kaptan Nazira Bekimbetova.

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, maqolamiz qahramoni jamiyat hayotida faol ishtirok etish bilan birga, oilada ham namunali bekalardan biri hisoblanadi. Hozirda turmush o'rtog'i Jolmirza Xojanov bilan Jamalatdin va Imamatin ismli ikki nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

MASHG'ULOT

MODUL ASOSIDA

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-patrul va patrul-post bo'linmalari xodimlari deyarli har kuni fuqarolar bilan turli masalalarda yuzma-yuz muloqot qiladi. Ba'zan aholining ijtimoiy muammolarini hal etishsa, aksar holatlarda buzilgan huquqlarini himoya qilishga, nizolarni bartaraf etishga yoxud janjal-mojaroga aralashishga to'g'ri keladi.

Afsuski, jinoyatchi yoki qonunbuzar tomonidan xodimning qonuniy talablarini bajarmaslik va unga jarohat yetkazish holatlari ham uchrab turibdi. Bunday paytda esa

xodim o'zini himoya qilishi, jangovar shay holatda bo'lishi muhimdir.

Xodimlarning «Fuqarolar bilan ishlash moduli» asosida kasbiy ko'nikmalarini oshirish maqsadida



Navoiy viloyati IIBning bevosita fuqarolar orasida faoliyat olib borayotgan sohaviy xizmatlari xodimlari bilan o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. IIV Malaka oshirish instituti professor-o'qituvchilari tomonidan o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarida huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-patrul va patrul-post xizmati bo'linmalari xodimlari ishtirok etishdi. Mazkur mashg'ulotlar ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanilgan holda olib borildi.

Mashg'ulotlar chog'ida Institut professor-o'qituvchilari tomonidan nostandart vaziyatlar va muammoli holatlarga oid tayyorlangan maxsus videolavhalar namoyish etilib, ular asosida mavzuga doir huquqiy yechimlar atroflicha tahlil qilindi. Ushbu jarayonda xodimlar mavzu yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga soha mutaxassislaridan tegishli javoblar va amaliy tavsiyalar olishdi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



VATAN UCHUN YASHAYLIK!

SHIJOATLI YOSHLAR
NIMA DEYDI?

Ichki ishlar organlari sohasida ishlashning o'ziga xos mashaqqatlari xodimlar irodasi va matonatini yanada toblaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Namangan viloyatida sohaga yangi qadam qo'ygan yosh xodimlarni qo'llab-quvvatlash, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Quyida faoliyat boshlaganiga bir yil to'lgan yosh xodimlarning taassurotlari bilan tanishasiz.



Muzaffar Jo'raboyev, tuman IIB huzuridagi tergov bo'linmasi tergovchisi, leytenant:

– Birinchi ish kunim tergov sohasi bilan tanishuv bo'lgan. Ilk tergov ishida o'lim bilan bog'liq halokat sodir etgan fuqaroni tergov qilganman. Fuqaro tegishli tartibda, sud hukmiga ko'ra jazosini oldi. Mana, o'shandan buyon 80 ta tergov ishini ko'rib tugatdim. Tergov hujjatlarini yuritishda ustozim, kapitan Rahmatilla Abdurahmonovdan ko'p narsani o'rganyapman.



Muazzam Abdupattayeva, Namangan tumani IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant:

Xizmat faoliyatimni 2024-yilning avgustida Yangi Namangan tumani IIB Huquqbuzarliklar bo'limida boshlaganman. Joriy yilning may oyidan Namangan tumani IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimiga tayinlandim.

Oilalar tinchligini saqlash, ajrim yoqasidagi oilalarni yarashtirish, xotin-qizlar muammolariga yechim topish, bandligini ta'minlashga ko'maklashish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish kabi ishlarda sohadagi ustozlarim – mayor Dilbar Turg'unova, iste'fodagi podpolkovnik Surayyo Ahmedova o'z maslahatlarini ayashmadi.

May oyidan buyon 42 nafar ayolga himoya orderi berilgan bo'lsa, 32 ta oilani yarashtirishda ishtirok etdim. Bunda tuman hokimligi xotin-qizlar bo'limi va mahalla yettligi a'zolari bilan hamkorlikda ish tashkil etmoqdamiz.



Baxtiyor Ergashmirzayev, tuman IIB HPB profilaktika inspektori, leytenant:

– 2024-yilda IIV Akademiyasini tamomlab, «Ozod» mahallasiga birlashtirildim. Ishimiz oson emas. Chegara hududdagi faoliyat biroz qiyin, muammolar ham talaygina. Lekin harakat qilsa, samara bo'ladi. «Yashil» toifada qolish uchun astoydil ter to'kib ishlayapman, bu maqtanish emas.

Ustozlarim – kapitan Salimjon Qo'shaqov, katta leytenant Abdulaziz Qodirovlarning ko'magi bilan ko'p bilimlarni o'rganyapman. Hali mahallada qilinadigan ishlar ko'p, ular bosqichma-bosqich hal etilmoqda.



Dilshodbek Tursunpo'latov, Yangi Namangan tumani IIB huzuridagi tergov bo'linmasi tergovchisi, leytenant:

IIV Akademiyasini bitirib, ilk faoliyatimni boshlaganimda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish va o'zimga yuklatilgan vazifalarni bajarish mas'uliyati qiyin tuyulgandi. Menga katta yordam bergan ustozlarim – tuman IIB huzuridagi tergov bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Bahodir Yahyoxo'jayev, kapitan Boburjon Abdullayev, mayor Muhsinjon Muslimovdan minnatdorman. Ayniqsa, ustozlarimning qat'iyatligi, talabchanligi va intizomga qat'iy rioya qilishi soha uchun eng kerakli fazilat ekanini his qildim.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA tayyorladi.

Namangan viloyati.

– Bolaligimdan nimagaki intilsam, ota-onamning qo'llab-quvvatlashini his etganman, – deydi Yunusobod tumani IIOFMB M va FRB inspektori, kichik serjant Sadoqat Xudoynazarova. – Bu oldimga qo'ygan maqsadlarim sari yanada ishtiyoq bilan harakat qilishimga zamin yaratgan. Aslida har bir farzandning eng katta orzusi, avvalo, ota-ona ishonchini oqlash, qaysi sohada bo'y ko'rsatmasin, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishdir.

«JAHON RAVSHAN
ZIYOYI ILMDANDUR...»

Bugunning yoshlari. Ayni damda ushbu iborani qanchalar mehr, iltifot, qoniqlik bilan ayta olamiz. Avvalambor bunga ularning yetuklik sari tashlayotgan dadil qadamlari, salohiyati sababdir. Qahramonimiz ana shunday yosh xodimlardan biri. U o'ziga nihoyatda talabchan qiz. Bu fazilat unga otasi Toshkent davlat agrar universitetining kafedra mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori Chorshanbi Ulug'ov hamda onasi O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori Safargul Ulug'ovadan o'tgan.

– Qizlarimdan Surayyo pedagog, Ra'no shifokor, Sadoqat huquq-tartibot sohasini tanlagan bo'lsa, kenjamiz Parizoda 8-sinf o'quvchisi, – deydi Chorshanbi Ulug'ov. – Oilaviy dasturxon atrofida jam bo'lganimizda, doim ilm-fandagi yangiliklar haqidagi bahs-munozaralarimiz ancha cho'ziladi. Qizlarimning til o'rganishga, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlarini o'zlashtirishga ishtiyoqi kuchli. Ularning barchasi turk tilini mukammal o'zlashtirishgan. Uyda ba'zan o'zaro turk, ingliz tilida so'zlashib, bir-birlarining xato va kamchiliklarini kamaytirishga harakat qilishadi. Biz onasi ikkimiz farzandlarimizni faqat olg'a harakat qilishga ruhlantiramiz.

Farzand ta'lim, tarbiyasi poydevoriga ota-onaning jonkuyarligi asnosida qo'yilgan har bir g'isht, uning mustahkamligi kafolatidir. Bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Sadoqat Xudoynazarovning izlanishlari

ana shunday mustahkam asosga qurilgani bois u sobitqadamlik bilan tanlagan yo'lida davom etmoqda.

– Termiz davlat universitetida tahsil olib yurgan kezlirimda huquq-tartibot mavzusidagi maqolalarim Italiya, Amerika kabi davlatlarning ilmiy nashrlarida chop etildi, – deydi qahramonimiz. – Aslida avvaldan ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, ichki ishlar organlarida xizmatga kirish maqsadim bir-birini to'ldirardi. Shu bois o'tgan yili Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi hamda Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakultetiga hujjatlarimni topshirdim. Omadim kelib, ikkisiga ham o'qishga qabul qilindim. Biroq har ikkisida birdan o'qishni davom ettirishning imkoni yo'q edi. Men Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakultetini tugatib, Yunusobod tumani bo'yicha IIOFMB M va FRB inspektori lavozimida xizmatimni boshladim. Joriy o'quv yilidan magistratura bosqichida ham o'qishni davom ettirish niyatidaman.

Shoira Anbar Otinning yillar silsilasida eskirmagan «Jahon ravshan ziyoyi ilmdandur, ko'ngil sofi safoyi ilmdandur» misralarini qalbiga jo qilgan qahramonimiz xizmatda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'kis va sifatli bajarishga doimo shay. Albatta, uning bu sa'y-harakatlari tizimda muvaffaqiyatlarga erishishida asos bo'ladi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA, o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН

ДУРМАН ДО ДОБРА НЕ ДОВЕДЕТ

Наркомания — одна из причин преступности. Незаконный оборот наркотических средств имеет трансграничный характер, в равной мере угрожает развитым и развивающимся странам.

В Узбекистане предпринимаются активные и последовательные меры противодействия этому пороку. На передовой борьбы с распространением дурмана находятся сотрудники органов внутренних дел. В их числе — Управление обеспечения безопасности на транспорте Республики Каракалпакстан. С начала года выявлено 12 случаев, связанных с наркоторговлей, нарушители закона получили по заслугам.

К примеру, в ходе профилактического мероприятия «Безопасная территория и безопасная страна» сотрудники оперативно-розыскного подразделения данного управления совместно с коллегами из других служб на неохраняемом железнодорожном переезде, расположенном на 682-м километре дистанции

путей в районе «Бестобе-пост», остановили автомобиль, следовавший из Нукуса. В присутствии понятых машина была осмотрена.

У пассажира, представившегося С. Б. из Кунградского района, было обнаружено вещество коричневого цвета с острым запахом, напоминавшее наркотики. Вещество, завернутое в купюру достоинством 200 тысяч сумов, находилось в пачке сигарет. Изъятное вещество направлено в Экспертно-криминалистический центр МВД Республики Каракалпакстан для анализа.

Экспертиза подтвердила, что это гашиш. Возбуждено уголовное дело, ведется следствие.

Санжар АЛЛАМБЕРГЕНОВ,
лейтенант.



БУХАРСКАЯ ОБЛАСТЬ

АКТУАЛЬНЫЕ ТРИДЦАТЬ ДНЕЙ

С 10 июня по 10 июля в области проходило межведомственное профилактическое мероприятие «Безопасная территория — актуальные 30 дней». Оно реализовалось по инициативе хокимията, УВД, прокуратуры, СГБ, Национальной гвардии, Минздрава, Управления по ЧС, агентств по делам молодежи и миграции, Ассоциации махаллей и других организаций. В мероприятии были задействованы 1 786 сотрудников, из них 841 — от органов внутренних дел.

Был создан сводный отряд из 40 сотрудников УВД, который выезжал в районы и города для оказания практической помощи на местах. Осмотрено свыше 95 тысяч объектов, на профилактический учет поставлены 1 266 человек, еще 104 — взяты под административный надзор. Ужесточены меры в отношении 69 граждан, находящихся под надзором службы пробации.

128 человек были досрочно освобождены от наказания, 267 направлены в медицинские учреждения — 165 в областной наркодиспансер и 102 — в психоневроло-

гический. По итогам изучения обстановки в неблагополучных семьях, 977 женщинам, подвергшимся насилию, выданы охранные ордера. В отношении 29 нарушителей условий ордера применены меры административного воздействия.

Сотрудниками УБДД проведены рейды. Установлены свыше 4 000 грубых нарушений ПДД. В целом за месяц в области выявлено 91 преступление, а уровень раскрываемости вырос на 26,3% по сравнению с прошлым месяцем. В ходе проведенных мероприятий «Тиг» задержаны 45 разыскиваемых лиц, 164 гражданина привлечены к ответственности за незаконное ношение холодного оружия.

Проверено более 500 торговых точек на рынках 8 городов и районов. В отношении ряда владельцев мясных и продуктовых лавок вынесены предупреждения, на 21 человека составлены протоколы за нарушение ветеринарно-санитарных норм.

В ходе работы выявлены 74 беспризорных подростка, около 600 несовершеннолетних взяты на контроль. Изучены причины конфликтов более чем в 1 500 семьях, проведены меры по их разрешению.

Озодбек АСАДОВ,
подполковник.



МЫ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ!

НЕ МЫТЬЕМ,
ТАК КАТАНЬЕМ

В последние годы экзамены на получение водительского удостоверения значительно усложнились. Те, кто обучался формально или без должного старания, не могут сдать теоретический и практический этапы. В таких случаях некоторые пытаются обойти систему с помощью обмана.

Так поступили и жители Чиназского района Ташкентской области Б. С. и К. С. Убедившись, что своими силами экзамены не осилит, они обратились за «помощью» к Б. Ю. из махалли Бошқирших и Р. А. из махалли Навруз Янгибазарского района Хорезмской области. Те предложили сдать экзамен вместо них.

Для этого были изготовлены поддельные ID-карты на имя Б. С. и К. С. Однако сотрудник экзаменационного центра Джизакской области заподозрил фальсификацию и сообщил об этом в органы внутренних дел. В отношении владельцев фальшивых документов началась доследственная проверка.

Желая замять дело, Б. Ю. попытался дать взятку — 600 долларов США — старшему оперуполномоченному отдела уголовного розыска ОВД Шараф-Рашидовского района майору Исламу Анорбоеву. Несмотря на неоднократные предупреждения о незаконности таких действий и предусмотренной ответственности, Б. Ю. настаивал.

Майор Анорбоев сообщил о попытке подкупа своему руководству. Совместно с сотрудниками Управления собственной безопасности МВД по Джизакской области, районного ОВД и прокуратуры было проведено оперативное мероприятие. В результате Б. Ю. задержали с поличным при передаче взятки в размере 6 миллионов сумов.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.

Джизакская область.

QO'RQUV UNGA BEGONA EDI

O'n besh yildirki, iste'fodagi mayor Vahobjon Usmonovning xizmat kiyimi xonadagi ilgichda osig'liq turadi. Xuddi egasi hozir ularni kiyib, xizmatga otlanadigandek, go'yo. Aslida Vahobjon aka har kuni bu kiyimlarga boqarkan, umrining dolg'ali o'tgan kunlari ko'z o'ngida o'ziga xos bir kitobdek gavdalanadi. Kitobning ilk sahifalarida sinovli kunlar iskanjasida ulg'aygan jajji bolakay bo'y ko'rsatadi...

Izboskan tumanida tug'ilib, 12 yoshida shaharga ko'chib kelgan maqolamiz qahramonining bolaligi qiyinchiliklarda kechdi. Andijon shahridagi Qurilish bilim yurtini tamomlagach, amaliy tajriba oshirish maqsadida Moskva shahriga yo'l oldi. U yerda qurilish trestiga ishga kirib, kechki vaqtlarda ko'ngilli ravishda ichki ishlarda xizmat qila boshladi. 1979-yilda Moskva shahar ichki ishlar bo'limi tomonidan unga «Xalq posboni» guvohnomasi berildi. 19 yoshli yigitcha patrul-post xodimlariga hamroh bo'lib, aholi orasida tinchlik-osoyishtalikni nazorat qilardi. Yosh Vahobjonga bu tizimda ishlash yoqib qoldi. Odamlarning muammolarini o'rganib, ularni bartaraf etish, ojizlarni himoya qilish, yomonliklarga qarshi kurashish qandaydir maroqli edi. «Men ham ichki ishlar organi xodimi bo'laman», deya diliga tugdi u.

1982-yil harbiy xizmatni o'tab, Andijonga qaytgach, yong'in xavfsizligi xizmatida faoliyatini davom ettirdi. 1990-yilda uchastka noziri etib tayinlandi. Tug'ma sinchkovlik, mas'uliyatni chuqur his qilishi, qolaversa, rus tilini mukammal bilgani uchun oradan ikki yil o'tib, qahramo-



nimizni shaharning eng kriminogen dahasiga o'tkazishdi.

– Tabiatan menga qo'rquv tuyg'usi begona bo'lgan, tunda bir o'zim yurishdan sira cho'chimasdim, – deydi Vahobjon aka. – Men nozirlik qilayotgan hududda janjalkashlarga, spirtli ichimlik ichuvchilarga tez-tez duch kelish mumkin edi. Tungi vaqtlarda ko'p qavatli uylar oldida o'smir yigitchalar to'p-to'p bo'lib o'tirardi. Ular bilan bir-

ma-bir gaplashib, shaxsini aniqlab, ba'zida ota-onasining oldiga yetaklab borgan vaqtlarim ham bo'lgan. Nazoratsiz qoldirilgan bolalar biron ko'ngilsizlikka qo'l urmasin, derdim. 1994-yilda «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlanganimda, qilingan hech bir mehnat va fidoyilik beiz ketmasligini tushunib yetdim.

mototsiklga o'tirib, yo'lga chiqdi. Baxtiga jinoyatchilar uzoqqa ketib ulgurmagandi. Mashinani to'sib to'xtatdi. Avtoulav salonida shubhali uch nafar yo'lovchi o'tirardi. Shaxsiga oydinlik kiritayotgan paytda yo'lovchilarning ko'zlarida bejolik sezildi. Bu orada qo'shimcha kuchlar yetib keldi. Gumondor shaxslar katta miqdordagi o'g'irlikni sodir etib, O'zbekiston hududidan qochib ketmoqchi edi. O'z vaqtida voqea joyiga yetib borish va jinoyatlarni fosh etish Vahobjon Usmonovning kasbiy tamoyili sanalgan. U vaziyat taqozo qilganda jinoyatchilar bilan yakkama-yakka olishdi, chiqindiga tashlangan chaqaloqni topdi, murdani mototsiklida olib ketdi. Shu tariqa, Andijon shahrining «Ozodlik», «Yorboshi», «Qalandarxona», «Buvasadin» kabi bir qancha mahallalarida samarali faoliyat olib bordi. 2009-yilda kasbiy tajribasi inobatga olingan holda, dastlab ish boshlagan dahasiga yana qaytarildi. Vahobjon Usmonov profilaktika katta inspektori sifatida hududdagi barqarorlikka munosib hissa qo'shdi.

20 yillik namunali xizmatdan so'ng hurmat-ehtirom ila pensiyaga kuzatildi. O'shandan buyon oilasi bag'rida tinch-xotirjam hayot kechirib kelmoqda. Bugungi kundan minnatdor faxriy faoliyat davrlari, kasbdosh do'stlarini eslaganda, barcha xotiralari qayta uyg'ongandek bo'ladi, o'tmishidan faxrlanish hissini sezadi.

Nigora TO'XTAMATOVA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

YANGI TERMINLAR

MENTOR so'zining lug'aviy ma'nosi – ustoz, murabbiy, nasihatgo'y. Mentor tajribali va muvaffaqiyatli inson bo'lib, kamroq tajribaga ega bo'lgan insonga kasbiy va shaxsiy rivojlanishda yordam beradi. Mentor, asosan, global masalalarga e'tibor qaratadi. Masalan, maqsadlarga erishish va kasbiy o'sish kabilar. Shuningdek, ijobiy ta'sir ko'rsatish va motivatsiyani oshirish ham uning vazifalariga kiradi.

KOMPLAYENS yoki komplayens nazorat – bu tashkilot xodimlarining qonuniylikka zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olish va qonuniylikka, sanoat standartlariga va ichki tartib-qoidalarga (nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar va boshqalar) rioya qilish asosida korporativ ishbilarmonlik etikasini tatbiq qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Komplayensning asosiy maqsadlari: qonunbuzarliklarning oldini olish; risklarni boshqarish; ichki nazoratni kuchaytirish; huquqiy va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash; korporativ ijobiy imidj yaratish.

YOZ O'TMOQDA SOZI!

KATTA ISHGA MUNOSIB HISSA

Yoz mavsumida Nukus shahridagi «Turon» oromgohi bolalarning sevimli maskaniga aylangan. Statsionar tipdagi mazkur bolalar oromgohi mavsum davomida 5 ta smenada jami 450 nafar bolani o'z bag'riga oladi. Ularning 187 nafarini boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oilalarning farzandlari hamda oilaviy bolalar uylarining tarbiyalanuvchilari tashkil etadi.

– Ayni kunga qadar 3 smenada shahar va tumanlardan kelgan 270 nafar bola dam olishga ulgur-



di. Ularni sog'lomlashtirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun 12 kunlik maxsus dastur ishlab chiqilgan. Ushbu dasturga muvofiq, har kuni sport musobaqalari, bolalar festivali, harbiy vatanparvarlik tadbirlari, «Zakovat» intellektual o'yinlari tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda til o'rganish, kompyuter savodxonligi, rassomlik va boshqa yo'nalishlardagi to'garaklar, kutubxona faoliyat olib bormoqda. Bu o'quvchi-yoshlarning bilimlarini oshirish, o'z iqtidorlarini turli yo'nalishlarda sinab ko'rish orqali kelajakda kasb tanlashga yordam

beradi, – deydi oromgoh direktori Salamat Kidirbayev.

Oromgohda 11 nafar pedagog faoliyat olib boryapti. Albatta, bolalarning mazmunli dam olishini tashkil etishda ularning sog'lig'ini muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash ham muhim masalalardan hisoblanadi. Shu maqsadda ushbu so'lim maskanga ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar, Tibbiyot bo'limlaridan va Milliy gvardiyadan xodimlar biriktirilgan.

– «Turon» bolalar oromgohiga biriktirilgan xodimlar tinchlik-osoyishtalikni saqlash, xavfsizlik qoidalariga rioya etishni nazorat qilish barobarida o'quvchi-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda vatanparvarlik, jamoa bilan ishlash ruhini kuchaytirish, sportga qiziqirish, ta'lim-tarbiya ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Bu sa'y-harakatlarimizni oromgohdagi bolalar kelgusida munosib avlod bo'lib yetishishiga qo'shgan kichik hissamiz deb bilaman, – deydi Nukus shahar IIOFMB JXX HPB inspektor-psixologi, kapitan Umitgul Barliqbayeva.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

OG'RIQLI NUQTALAR


SIZ YO'L HARAKATINING NAMUNALI ISHTIROKCHISIMISIZ?

Biror joyga otlansak, yoshi ulug'lar «Yo'ling bexatar bo'lsin», deya duo qilishadi. Bu yaxshi niyatning xosiyati ko'p, ijobati esa har jihatdan o'zimizga bog'liq. Aniqrog'i, yo'l harakati ishtirokchilariga aylanar ekanmiz, qoidalarga amal qilishni unutmasligimiz kerak. Biroq keyingi vaqtlarda omma-viy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan, ayniqsa, o'lim bilan bog'liq noxush holatlar haqidagi xabar-lardan yuraklar ezilishi bor gap...

Istaymizmi-yo'qmi deyarli har kuni yo'l harakati ishtirokchisi bo'lamiz. Yo'l esa qoidani yoqtiradi. Kezi kelganda ta'kidlash joiz, ana shu tartib-qoida, avvalo, xavfsiz hayotimiz, sog'ligimiz garovidir. Ushbu qoidalarga amal qilmaslik, soniyalardagi e'tiborsizlik yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Buning achinarli oqibatlariga esa ba'zan o'nlab odamlar hayotiga xavf solishi ham rost.

So'nggi yillarda harakat xavfsizligini ta'minlash, sodir etilishi mumkin bo'lgan yo'l-transport hodisalarining oldini olish, haydovchilarni tartibga chaqirish maqsadida yo'llarda turli ko'rinishdagi qoidabuzarliklarni qayd etuvchi moslamalar o'rnatildi. Haydovchilarni tayyorlash bo'yicha yangi tizim, yo'llarni ta'mirlash, shaharlarda jamoat transporti uchun maxsus yo'laklar tashkil qilinishi kabi bosqichma-bosqich davom etayotgan amaliy ishlardan ko'zlangan maqsad-muddao ham harakat xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Shunday bo'lsa-da, yo'l-transport hodisalari, ularning katta-kichik, ayanchli oqibatlariga e'tibor markazidagi mavzu bo'lib qolmoqda.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va tirbandlikni kamaytirish bo'yicha Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida ham bu boradagi raqamlar tahlil qilindi. Ya'ni, yurtimizda o'tgan yili **9 ming 364 ta** yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan. Ushbu ko'ngilsiz hodisalar tufayli qariyb **9 ming fuqaro** jarohat olgan bo'lsa, **2 ming 203 nafar odam** hayotdan ko'z yumgan. O'lim bilan bog'liq holatlar Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida yuqoriligi alohida qayd etildi.



Bu boradagi tahlillar hududlar kesimida ko'rib chiqilganida, Mo'y-noq, Nukus, Taxtakopir, Qonliko'l, Yangiobod, To'raqorg'on, Oqqo'rg'on, Sayxunobod, Buloqbo-shi, Ulug'nor, Bandixon tumanlari va Ohangaron, Shirin, Nurafshon, Xonobod shaharlarida vaziyat yaxshilanib, o'lim holatlari bo'lmaganidan dilimiz yorishadi. Lekin Qizil-tepa, Uychi, Paxtachi, Chust, Toyloq, Urgut, Shovot, Pstdarg'om, Yakkabog', Qo'shko'pir, Xonqa, Denov, Peshku, Beruniy, Olmazor, Bektemir tumanlarida vaziyat mutlaqo teskariligi ayrim yo'l hara-



kati ishtirokchilarining befarqligi, loqaydligi oqibati emasmikin, deya achinish bilan o'yga tolasani kishi.

Bugun ayrimlarda yo'l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarga nisbatan, ayniqsa, radarlar bora-sida «Bu haydovchilarni jazolash», degan qarash bor. Bunday nuqtayi nazarining o'zi tashvishli ekanligini aytib o'tish kerak. Unutmang, bu

yo'nalishdagi ishlar, avvalo, xavfsizlik va yana xavfsizlik nuqtayi nazaridan olib borilmoqda.

Xabaringiz bor, so'nggi oyda haydovchilarga qator yengilliklar berildi. Birinchi bor huquqbuzarlik qilganlarni jazolash emas, ogohlantirish yo'lga qo'yildi. Yo'l chiziqlarini bosish holatlarini



kamera orqali qayd etish bekor qilindi. Jamoat transporti uchun mo'ljallangan tasmalarda kechqurun boshqa haydovchilar ham yurishiga ruxsat berildi. Shaharlarda yo'llarni kunduzi ta'mirlash taqiqlandi. Radar bor joyda yo'l belgisini o'rnatish majburiy bo'ldi. Afsuski, oramizda bundan ko'zlangan asl maqsad – haydovchilarni hushyorlikka chaqirish va imkon qadar yo'l qoidalarini buzmaslikni ta'minlashdan iborat ekanligini anglasa-da, tan olishni xohlamaydiganlar yo'q emas. Shundaylar har qanday qoidabuzarlik eng kamida oilaviy budjetga zarar yetkazishi, eng yomon holatda esa inson hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'dirishini o'ylab ko'rishsa yaxshi bo'lardi.

Bu fikrlarimiz bilan hamma ayb harakat ishtirokchilari, ayniqsa,



haydovchilarda deyish fikridan yiroqmiz. Chunki Prezident topshirig'iga ko'ra, xalqaro va davlat ahamiyatidagi yo'llar holati o'rganilib, **1 ming 557 kilometr yo'llarda beton va temir to'siqlar, 967 kilometr trotuar, 38 mingta yo'l belgisi** yetishmasligi aniqlandi. Bu yo'l-transport hodisalari va huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari hamda sharoitlarining tahlillari yo'l infratuzilmasini yaxshilash, piyodalarga qulayliklar yaratish borasida ham yechimini kutayotgan masalalar borligini ko'rsatadi. Quvonarlisi,

ushbu muammolar yechimi Prezidentimiz e'tiborida.

Selektor yig'ilishida yo'l infratuzilmasini yaxshilash orqali avariylarni kamaytirish bo'yicha «Xavfsiz yo'l» milliy dasturi boshlanishi e'lon qilindi. Ushbu milliy dastur doirasida «Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda» respublika jamg'armasi faoliyati qayta tashkil qilinib, Hukumat bo'ysunuviga o'tkazilishi, har bir viloyatda jamg'armaning alohida filiallari bo'lishi belgilandi. Mazkur jamg'arma mablag'lari birinchi galda avariya o'choqlari bo'lgan xavfli uchastkalarni tartibga solish, ya'ni yo'lni ajratuvchi to'siqlar, yo'l belgilari, yoritkichlar o'rnatish, piyoda yo'laklari tashkil qilish, chorahalarni raqamlashtirish singari ishlarga yo'naltirilishi ta'kidlandi. Biz bunga yurtimizda inson qadri, uning manfaatlari va farovon hayotini ta'minlash uchun amalga oshirilayotgan islohotlarning bir muhim bo'g'ini sifatida qarashimiz va aslo befarq bo'lmasligimiz kerak. E'tibor, hissa qo'shishga intilish esa namunali yo'l harakati ishtirokchisi bo'lishimizdan boshlanadi, albatta.

Keling, shu o'rinda har birimiz bilan kechadigan oddiy hayotiy vaziyatni esga olaylik. Bolaligimizda maktabdagi dars jarayonlarida o'qituvchimiz yoki uyda bobo-buvmiz, ota-onamiz «Yo'lni kesib o'tayotganda, avval o'ng tomoniga, keyin chap tomoniga qara», deya uqtirganlari yodingizdami? Bu tartib-qoidalar hamon o'zgarmagan, hamon o'rgatilmoqda. Lekin muammo shundaki, bolalikdanoq olgan ilk saboqlarimizga hammamiz ham rioya qilavermaymiz.

Hayot inson uchun bir bora beriladi. Bugun to'rt muchasi sog' odamni nogiron bo'lishga yoki umriga nuqta qo'yilishiga sabab bo'layotgan og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalari yuragimizga og'riq solyapti. Shunday ekan, yo'lda hushyor, sergak va namunali ishtirokchi bo'ling.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

АКТУАЛЬНО

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ
КАЖДОГО

Состоявшееся под председательством Президента страны видеоселекторное совещание по мерам обеспечения безопасности дорожного движения и поставленные на нем задачи значимы тем, что они нацелены на вывод сферы на качественно новый уровень, повышение ответственности каждого из нас.

Я многие годы прослужил в СБДД, поэтому с особым воодушевлением воспринимаю инициативы в сфере обеспечения безопасности дорожного движения. Они направлены на кардинальное снижение числа ДТП, сохранение жизни и здоровья людей, улучшение инфраструктуры, усиление правоприменения и активное внедрение технологических достижений.

Запуск национальной программы «Безопасная дорога» демонстрирует, что подход к повышению безопасности на дорогах становится по-настоящему всеобъемлющим. Своевременными являются и создание Фонда «Безопасная дорога и безопасный пешеход», а также электронного портала для выявления наиболее проблемных участков на основе анализа общественного мнения. Технологические инновации – планшеты, бодикамеры, система отслеживания нарушений на основе искусственного интеллекта также будут способствовать укреплению порядка на дорогах.

Особого внимания заслуживает внедрение программы «Злостные нарушители». Так, водителям, повторно нарушившим правила (движение по встречной полосе, проезд на красный свет, значительное превышение скорости и др.), не будет предоставляться скидка на штраф в течение года. Если водитель допустит более 10 таких нарушений в месяц, он может быть лишен водительских прав на срок до шести месяцев. Жестко? Нет, справедливо.

Ключевым моментом является и обучение детей ПДД. Даны поручения по обновлению программ в школах и детских садах. Новый импульс получают соревнования «Яшил чироқ», победители республиканского этапа которых будут награждаться призами Президента.

Осуществление данных инициатив повысит культуру участников дорожного движения.

Камил ТАЖИЕВ,
зам. председателя Совета ветеранов
УВД Хорезмской области,
майор в отставке.

БУДУЩЕЕ НАЧИНАЕТСЯ СЕГОДНЯ

ДОРОЖНАЯ ГРАМОТНОСТЬ
С ЮНЫХ ЛЕТ

В Юкори-чирчикском районе Ташкентской области прошел областной этап состязаний «Яшил чироқ», собравший юных знатоков ПДД. В мероприятии приняли участие 22 команды, одержавшие победы на городских и районных этапах.

Участники продемонстрировали глубокие знания ПДД, способность принимать правильные решения в непростых дорожных ситуациях, а также четкость и слаженность действий при оказании помощи пострадавшим. Все команды показали огромное стремление к победе.

По итогам напряженной борьбы призовые места распределились следующим образом: третье место заняла команда школы №17 города Ангрена, второе место – команда школы №10 Паркентского района, первое место – команда школы №3 Бостанлыкского района, которая будет представлять область на республиканском этапе соревнований.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.



ODAM SAVDOSI — DAVR MUAMMOSI

Inson hayoti – oliy ne'mat. Biroq, afsuski, hozirgi global-lashuv asrida insonni tovlamachilik yo'li bilan sotish, moddiy manfaat uchun tovarga aylantirish holatlari dunyo bo'ylab kun tartibidan tushmayapti. Har yili yuz minglab begunoh insonlar turli aldovlar, tahdidlar, zo'ravonlik orqali odam savdosi qurboniga aylanib qolmoqda. Ular o'z hayoti, erkinligi va orzularidan mahrum bo'lib, jismoniy va ma'naviy azoblar-ga giriftor bo'lyapti. Eng achinarlisi, bu jinoyatni sodir etuv-chilarning ham, bundan jabr ko'ruvchilarning ham muddaola-ri mushtarak, ya'ni oson yo'l bilan daromad topish.

Xo'sh, shu o'rinda odam savdosi o'zi nima, uning qan-day turlari farqlanadi, degan haqli savol tug'iladi. O'zbekis-ton Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasiga ko'ra, odam savdosi deganda odamni olish-sotish yoxud undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi.

Odam savdosining ko'plab turlari mavjud bo'lsa-da, ularning eng keng tarqalgan va salbiy oqibatlari og'ir bo'lgan to'rt asosiy turi farqlanadi:

- shahvoniy ekspluatatsiya;
- mehnat ekspluatatsiyasi;
- chaqaloq va bola savdosi;
- inson a'zolarining noqonuniy transplantatsiyasi.

Shahvoniy ekspluatatsiya odam savdosining eng keng tarqalgan ko'rinishi bo'lib, jabrlanuvchilar zo'ravonlik, tahdid yoki aldov orqali fohishalikka yoki boshqa turdagi intim xizmatlarga majburlanadi. Bunda jabrdiydalar nafaqat jismoniy salomatligini yo'qotadi, balki umrining oxirigacha ruhiy iztirob, qo'rquv va kemtiklik hissi bilan yashashga majbur bo'ladi. Bu esa ularning normal hayotga qaytishini juda qiyinlashtiradi.

Mehnat ekspluatatsiyasi. Odamlar ko'pincha ish topib berish yoki chet elda yuqori maoshli ish va'dasiga ishonib, o'z xohishi bilan yo'lga chiqishadi. Oxir-oqibat esa hujjatlaridan mahrum etilib, og'ir mehnatga majburlanadi. Ularga mehnati uchun pul to'lanmaydi yoki juda kam haq to'lanadi. Bu faqat moddiy zarargina emas, inson qad-rining toptalishi va hayotining izdan chiqishi demakdir.

Chaqaloq (bola) savdosi. Odam savdosining yana bir dah-shatli ko'rinishi – bolalar, ayniqsa, chaqaloqlarning noqonuniy savdosi. Bolalarni asrab olish bahonasida sotish, yaqinlaridan ajratib noinso-niy maqsadlarda foydalanish – bu nafaqat qonunga zid, balki axloq va insoniylikni sinovga qo'yadigan og'ir jinoyat turidir. Bola huquqlari bu kabi holatlarda to'liq inkor qilinadi, ular mehr va erkin hayotdan mahrum bo'ladi. Bu esa kelajakda jamiyat-ning ma'naviy asoslariga ham jiddiy tahdid soladi.

Inson a'zolarini noqonuniy transplantatsiya qilish. Ushbu jino-yat jabrdiydalari odatda og'ir sharo-itdagi aholi vakillari orasidan tanlab olinadi. Bu orqali qalloblar katta pul topishni ko'zlab, minglab begunoh insonlar hayotidan kechishiga sa-babchi bo'ladi. Mazkur jinoyatning

oqibati hayotiy xavf, nogironlik, turmush sifatining yomonlashishi va jamiyatda qo'rquv muhitining paydo bo'lishi bilan yakunlanadi.



MA'LUMOT O'RNIDA:

O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda odam savdosi bilan bog'liq 135 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2024-yil ya-kuniga ko'ra bu jinoyatlar soni 177 taga yetgan. Shulardan 129 tasi shahvoniy ekspluatatsiya, 5 tasini mehnat eksp-luatatsiyasi tashkil qilgan bo'lsa, 43 ta chaqaloq savdosi bilan bog'liq holatlar qayd etilgan. 91 nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (ayol va qizlar) aldov yo'li bilan chet davlatlarga olib ketilayotgan vaqtda chegara maskanlari, aeroport va vokzallarda to'xtatib qoling.

2008-yildan buyon Odam savdosi jabrdiydalariga yor-damlashish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi faoliyat yuritib keladi. Birgina 2024-yilning o'zida 108 nafar jabrdiydalar ushbu markazda davolanishdi.

IIV ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning dastlabki chora-gida 40 dan ortiq shu kabi holatlar fosh qilindi, 50 ga yaqin ishga joylashtirish bahonasida aldab chet elga chiqarishga urinish bo'lgan.

Odam savdosi transmilliy, ya'ni hudud va chegara tanlanmaydigan jinoyat hisoblanadi. Shu boisdan davlatimiz 2003-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomoni-dan qabul qilingan Konvensiya-ga qo'shildi hamda 2008-yilning 17-aprelida O'zbekiston Respubli-kasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Shuningdek, 2010-yil 30-iyulda BMT Bosh Assambleyasi 64/293-re-

zolyutsiyasi bilan Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha BMTning Global harakat dasturi qabul qilingan. Mazkur harakatlar dasturida ushbu jinoyatning oldini olish, jabrdiydalarning himoyasi, jinoyatchilarni ta'qib etish va barcha yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda ko'plab xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan normalar milliy qonunchiligimizga implemen-tatsiya qilingan. Xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik, shu jumladan odam savdosiga qarshi ku-rashish bo'yicha o'ttizdan ortiq ikki tomonlama shartnoma va bitimlar imzolangan.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, 2020-yilning 17-avgust

tadbirlar to'g'risida»gi farmoni bilan Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiyasi Oliy Majlisi Senati raisi rahbarligida qayta tashkil etildi.

Mazkur farmon bilan Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha Milliy ma'ruzachi instituti ta'sis etildi. Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha hududiy komissiyalarga hududlarda hokimlar rahbarlik qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ni 2021-yil 8-fevraldagi «Odam savdosidan jabrlangan yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni milliy da-rajadagi qayta yo'naltirish tizimini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qa-bul qilindi. Ushbu tizim jabrlangan shaxslarni identifikatsiya qilish va qayta yo'naltirish tartibini belgilaydi.


Odam savdosi jabrdiydalariga har tomonlama yordam ko'rsatish va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qi-lish maqsadida, Toshkent shahri-da Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha respublika reabilitatsiya markazi faoliyat yuritib kelmoqda.

2013-yildan boshlab har yili jahonda 30-iyul – «Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni» sifatida nishonlanib kelinadi. Bu sana BMTning tashabbusi bilan joriy qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi – odam savdosi muam-mosiga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish, odamlarni xabardor qilish va jabrdiydalarga yordam berishga chaqirishdan iboratdir.

Dunyo bo'ylab shu kuni turli ma'rifiy tadbirlar, forumlar, ijtimoiy aksiyalar, media loyihalar o'tkazila-di. O'zbekistonda ham ushbu sana munosabati bilan har yili «30 kun – Odam savdosiga qarshi kurashish oyligi» doirasidagi turkum targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish an'anaga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, odam savdosiga qarshi kurashish faqat davlat yoki huquqni muhofaza qiluv-chi organlarning vazifasi emas, balki barchamizning umumiy burchimizdir. Chunki inson hayoti va erkinligi – eng oliy muqaddas qadriyatdir.

**Sherzod XOLTO'RAYEV,
IIV TQD JQX Komissiyalar
faoliyatini muvofiqlashtirish
bo'linmasi boshlig'i,
podpolkovnik.
Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.**



Maqolani
qoraqalpoq tilida
ushbu QR-kod
orqali o'qishingiz
mumkin.

ORAMIZDAGI QAHRAMONLAR

QULFLANIB QOLGAN KICHKINTOY eson-omon ota-onasiga topshirildi

Quyosh butun shiddati bilan zaminni qizdirayotgan palla. Bunday issiqda ko'pchilik uyda konditsioner tagida, ko'chaga chiqqanlar esa o'zini soyaga olishga urinadi. Olmazor tumani «Orzu» mahallasi profilaktika inspektori, katta leytenant Alijon Jumayev esa mahalla ahli dard-u tashvishi bilan kunning tig'ida xizmatni davom ettirardi.

Shu payt bir kishi yugurgan-cha kelib, qo'shnining bolasi uyida qulflanib qolganini, unga yordam kerakligini aytadi. Xodim tezda Beruniy ko'chasidagi 2-uy 32-xonadonga yetib boradi. Ko'rsa-ki, xonadon egasi Mavluda Norbekova qulflangan eshik oldida yig'lab o'tirar, ichkaridan esa bolaning chinqirib yig'layotgan ovozi eshitilardi. Katta leytenant tezda Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga qo'ng'iroq qildi. Lekin hech bir inson bolaning yig'lashiga va onaizorning «bolam-lab» dod solishiga chidab tura olmaydi.

Alijon o'ylab o'tirmasdan, abjirlik bilan 2-uyning 1-yo'lagi 5-qavatiga chiqib, qo'shnining derazasi orqali o'tib, ichkarida qulflanib qolgan – Zubayrni olib, ichkaridan eshikni ochdi. Onaizor farzandini bag'riga bosdi.

– O'g'lim endigina bir yoshdan oshdi, – deydi Mavludaxon. – Men uni yolg'iz qoldirib, do'kon-dan ul-bul xarid qilish uchun pastga tushdim. Birozdan keyin qaytib chiqsam, eshik qulf. Harchand urinmay, ocha olmadim. Ichkarida bolajonim yig'lardi. Jon holatda yordam so'rab baqira boshladim. Ovozimni eshitgan qo'shnimiz profilaktika inspektorimizni yordamga chaqiribdi. U mening holatimni, bolamning yig'layotganini ko'rib, tezda qo'shnining derazasi orqali uyimizga kirib, o'g'limni olib chiqdi.

Bu holatda barcha ayb o'zimda. Farzandimni yolg'iz qoldirib ketmasligim kerak edi. Shu o'rinda aytishim kerakki, oldinlari ichki ishlar organlari xodimlarini bunchalik darajada o'z jonini garovga qo'yib, odamlarga yordam beradi, deb o'ylamas edim. Endi bildimki, mana shunday qo'rqmas, jasur va mard osoyishtalik posbonlarimiz bizning haqiqiy himoyachilarimiz ekan. Ular bor ekan, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo.

– Mahallada 15 ta ko'p qavatli uy mavjud bo'lib, ularda qariyb 5 ming nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi «Orzu» MFY raisi Elmira Umarova. – Hududimizda 1 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 1 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud. Shuningdek, mamlakatimizdagi eng yirik xususiy ko'p tarmoqli tibbiy markaz – «Akfa Medline» kli-



nikasi ham shu hududda joylashgan. Profilaktika inspektori, katta leytenant Alijon Jumayev yosh bo'lishiga qaramay, mulohazali, izlanuvchan, eng qiyin vaziyatlarda ham tezkor qaror qabul qila oladigan xodim. Uning uyda yolg'iz qulflanib qolgan bolakayni qutqarib qolgani haqiqiy qahramonlik namunasi bo'ldi.

Shu o'rinda aytib o'tmoqchimizki, aziz onajonlar, farzandlaringizni hech qachon yolg'iz qoldirmang. Yo'qsa, yuqoridagi kabi vaziyatga tushib qolishingiz mumkin. Bu voqea ayanchli tugashi ham mumkin edi. Yaxshiyamki, profilaktika inspektorining o'z vaqtida ko'rsatgan yordami tufayli bolajon eson-omon ota-onasiga topshirildi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

ILM YO'LIDA

YUKSAK DOVONLAR OSHA

Yaqinda Xorazm viloyati IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi katta inspektori, podpolkovnik Yulduz Hamdamova «O'zbekiston ichki ishlar organlarining shakllanishi va faoliyati (1925–1991-yillar, Xorazm viloyati misolida)» mavzusidagi ilmiy ishini muvaffaqiyatli yoqladi. Natijada u tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

– Birinchi galda ustozim va ilmiy rahbarim Urganch davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori Sanjarbek Davletovdan minnatdorman, – deydi u. – Ustoz rahbarligida bir necha yil tadqiqot ishlarini olib bordim. Ilmiy anjuman, seminar va konferensiyalarda qatnashdim. Mamlakatimizdagi, xorijiy davlatlardagi nashrlarda ilmiy maqolalarim chop etildi. Shukrki, intilishlarim, izlanishlarim zoye ketmadi. Meni qo'llab-quvvatlagan ota-onamga, turmush o'rtog'im, Shovot tumani IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari, podpolkovnik Dilshod O'rinov, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori

Yulduz Rahmonova, Ma'mun Akademiyasi ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Umid Bekmuhammadlarga samimiy minnatdorigimni bildiraman.

Yurtimiz osoyishtaligini ta'minlashdek sharaflı kasb egasi – podpolkovnik Yulduz Hamdamova mamlakatimiz olimlari safiga qo'shildi. Sirasini aytganda, maqsadlari amalga oshmoqda. Oldinda esa yanada yuksak dovonlar bo'y cho'zib turibdi. U bu marralarni ham muvaffaqiyat bilan zabt etishiga ishonchimiz komil.

Komil OSTONAYEV,
jurnalist.

Xorazm viloyati.



УРОК ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ



ТОРГОВЛЯ ЛЮДЬМИ – ПРОБЛЕМА ЭПОХИ

Жизнь человека – высшая ценность. Однако, к сожалению, даже в современную эпоху глобализации мы продолжаем сталкиваться с ужасающей реальностью: по всему миру фиксируются факты мошеннической торговли людьми, превращения человека в товар ради наживы. Попадая в сети обмана, угроз и насилия, люди теряют свои основные права и свободы, обрекаются на физические и душевные страдания. Данная проблема влечет за собой не только личные трагедии, но и подрывает духовные и экономические основы общества.

Согласно статье 135 Уголовного кодекса Республики Узбекистан под торговлей людьми понимается купля-продажа человека либо его вербовка, перевозка, передача, укрывательство или получение в целях его эксплуатации.

Несмотря на многообразие форм, торговля людьми чаще всего проявляется в четырех основных, наиболее распространенных и пагубных видах:

- сексуальная эксплуатация;
- трудовая эксплуатация;
- торговля младенцами (детьми);
- незаконная трансплантация органов человека.

В Узбекистане в 2024 году было зарегистрировано 177 преступлений, связанных с торговлей людьми. Из них 129 случаев сексуальной эксплуатации, 5 случаев трудовой эксплуатации, 43 случая торговли детьми.

1. Сексуальная эксплуатация – наиболее распространенная форма торговли людьми. Жертв насильно принуждают к проституции или другим интимным услугам, используя насилие, угрозы или обман. Это не только

подрывает их физическое здоровье, но и обрекает на пожизненные душевные страдания, страх и чувство неполноценности, что делает возвращение к нормальной жизни чрезвычайно сложным.

2. Трудовая эксплуатация часто начинается с обещаний высокооплачиваемой работы за границей, куда люди отправляются добровольно. Однако по прибытии у них отбирают документы и принуждают к тяжелому, неоплачиваемому или символически оплачиваемому труду. Это приводит к попранию человеческого достоинства, разрушая жизнь жертв.

3. Торговля младенцами (детьми) – еще одно ужасное проявление преступления. Продажа детей под видом усыновления или их использование в бесчеловечных целях – тяжкое деяние, бросающее вызов морали и человечности. В таких случаях права ребенка полностью игнорируются, создается серьезная угроза для духовных основ общества.

4. Незаконная трансплантация органов человека. Жертвами этого преступления обычно становятся представители социально уязвимых слоев, находящиеся в тяжелых условиях. Преступление приводит к инвалидности, значительному ухудшению качества жизни пострадав-

ших, созданию атмосферы страха в обществе.

Поскольку торговля людьми – это транснациональное преступление, не признающее границ, Узбекистан активно включился в международную борьбу с ним.

Наша страна 12 декабря 2003 года присоединилась к Конвенции о борьбе с торговлей людьми и с эксплуатацией проституции третьими лицами, принятой Генеральной Ассамблеей ООН. 30 июля 2010 года резолюцией 64/293 Генеральной Ассамблеи ООН был принят Глобальный план действий ООН по борьбе с торговлей людьми. План предусматривает меры по предупреждению данного преступления, преследованию лиц, их совершивших, защите жертв, укреплению сотрудничества по всем направлениям.

Сегодня нормы, предусмотренные в международных документах, имплементированы в наше национальное законодательство. Подписано более тридцати двусторонних договоров и соглашений с зарубежными странами по борьбе с организованной преступностью, в том числе с торговлей людьми.

Борьба с торговлей людьми – один из ключевых аспектов государственной политики Узбекистана. 17 августа 2020

года был принят Закон Республики Узбекистан «О противодействии торговле людьми» в новой редакции. На основании данного Закона Указом Президента страны от 21 декабря 2023 года «О дополнительных мерах по противодействию торговле людьми и широкому внедрению принципов достойного труда» придан новый импульс деятельности Национальной комиссии по вопросам противодействия торговле людьми и достойного труда, возглавляемой председателем Сената Олий Мажлиса Узбекистана. Укреплены организационно-правовые основы защиты прав, свобод и законных интересов граждан, противодействия торговле людьми, всесторонней защиты лиц, пострадавших от нее. Указом учрежден институт Национального докладчика по вопросам противодействия торговле людьми и достойного труда.

Кроме того, принято постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 8 февраля 2021 года «Об утверждении на национальном уровне системы перенаправления жертв торговли людьми или предполагаемых жертв торговли людьми», которая определяет порядок идентификации и перенаправления пострадавших лиц.

В целях оказания всесторонней помощи и социальной реабилитации жертв торговли людьми действует Республиканский реабилитационный центр. В центре предоставляются двухместные

комнаты, комнаты отдыха, бесплатное трехразовое питание, а также медицинские, психологические и юридические услуги.

Республиканский реабилитационный центр по оказанию помощи жертвам торговли людьми действует с 2008 года. В 2024 году в центре прошли лечение 108 пострадавших.

С 2013 года 30 июля традиционно отмечается Всемирный день борьбы с торговлей людьми. Дата была учреждена по инициативе ООН с целью привлечения внимания общественности к проблеме, информирования людей и призыва к оказанию помощи жертвам. В этот день по всему миру проводятся разнообразные форумы, социальные акции. В Узбекистане к данной дате ежегодно приурочивают масштабное событие – «30 дней – Месячник борьбы с торговлей людьми», в рамках которого проходят пропагандистские, просветительские мероприятия с участием представителей государственных органов, общественных организаций и широких слоев населения.

Борьба с торговлей людьми – чудовищным деянием, разрушающим судьбы, – долг не только государственных структур, правоохранительных органов, но и каждого из нас.

Шерзод ХАЛТУРАЕВ,
подполковник.



QO'SHSAHIFADA —

Sirdaryo viloyati 1963-yilda tashkil topgan. Hududi 4,28 ming km kv. Aholisi 925 ming nafar. Viloyatda yetmishdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi.

Viloyat muhim logistik, transport bo'g'inida joylashgan. Hududidan katta ahamiyatga ega M-39, M-34, A-376 avtomobil yo'llarining o'tgani buning tasdig'idir.

Keyingi paytda viloyatda «Sirdaryo» erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilib, bir necha qo'shma korxonalar ish boshladi. Shirin shahrida esa Saudiya arabistonlik investorlar tomonidan loyiha miqdori 1,5 milliard AQSH dollari bo'lgan Bug'-gaz qurilmasi bunyod etilib, ikki yuzga yaqin yoshlar ish bilan ta'minlandi.

Ulkan bunyodkorlik va qurilish ishlari amalga oshirilayotgan viloyatda, shubhasiz, aholi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, albatta, viloyat ichki ishlar organlari xodimlarining fidokorona xizmatini alohida e'tirof etish joizdir.



Bugun viloyat IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasida fuqarolarni deyarli uchratmaysiz. So'nggi yillarda yurtimizda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish borasida olib borilgan hayotbaxsh o'zgarishlar, sohada innovatsion texnologiyalarning keng qo'llanilishi fuqarolar uchun katta qulaylik yaratgan. Endilikda, deylik, xorijga chiqish istagida bo'lgan fuqaro viloyat markazidagi boshqarmaga kelishi shart emas. U o'zi istiqomat qiladigan yoki yaqin hududdagi IIB M va FRBga murojaat qilishi, bir necha daqiqadayoq hujjatlarni rasmiylashtirishi mumkin.

XIZMATNI SHARAF BILIB...



– Keyingi paytda o'qish, mehnat qilish, sayyohlik maqsadlarida chet elga chiqish holatlari ko'paymoqda, – deydi boshqarma boshlig'ining o'rinbosari mayor Zafarjon Usmonov. – Ayniqsa, yosh avlod vakillarining chet elga o'qish uchun yo'l olayotgani quvonarli hol.

Guliston tumanida yashovchi Hamida Nasriddinova ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi xalqaro sertifikatni qo'lga kiritib, Germaniyada o'qishga qaror qildi.

– Yurtim pasporti – faxrim, g'ururim, – deydi Hamida. – Uni qo'limga tutqazishganida vujudimni hayajon chulg'ab oldi.

Joriy yilda xorijga chiqish pasportini Davlat xizmatlari markazi orqali yuzdan ortiq fuqarolar olishdi. Ularning pasportlari o'z vaqtida yetkazib berilgan.

Xitoylik Yu Chji Van Shirin shahrida barpo etilayotgan

bug'-gaz qurilmasida quruvchi-muhandis bo'lib olti oydan beri ishlaydi. Shirin shahar IIB M va FRB orqali hujjatlari tez, ovoragarchiliklarsiz rasmiylashtirib berilgan.

– Chet el fuqarolariga yurtimizda bo'lish tartibi, qonunchiligimiz talablari tushuntirilayotgani bu borada qonunbuzarliklarning oldini olishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda, – deydi viloyat IIB M va FRB inspektori, safdor Ibrohim Bo'ribekov. – Qolaversa, tez-tez chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda bo'lib, ular bilan muloqot qilib turiladi. Bu o'zaro ishonch, hurmat ruhini shakllantirmoqda.



MAS'ULIYATLI VA ZIYRAK

Yangiyer shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, kapitan Jamshid Turdiqulov Boyovut tumanida tug'ilgan. U ulg'aygan «Mingterak» mahallasi keng dalalarga tutashib ketgani bois, bolaligi bug'doyzorlarda yugurgilab o'tdi.

IIV Akademiyasini tamomlagan J. Turdiqulov Yangiyer shahrida xizmat faoliyatini boshlaganida, Tergov bo'limi katta tergovchisi, mayor Qahramon Tursunmurotov ustozlik qildi. U avvaliga biroz qiyin bo'lsa-da, ustozlarining ko'magida murakkab jinoyat ishlari mustaqil yurita oladigan, ayniqsa, o'g'irlik jinoyatlarini tezkor fosh etish bo'yicha zarur malakaga erishdi.

Lavhamiz qahramoni ochgan o'g'irlik jinoyatlaridan uyali aloqa vositalarini o'g'ir-lash bilan bog'liq holat e'tiborga molik. Gap shundaki, dehqon bozoridan atrofdagi mahallalarga qatnaydigan avtobuslarda tez-tez uyali telefonlar yo'qoladigan bo'ldi. Jinoyat ishlarini tergov qilish Jamshid Turdiqulovga yuklatildi. Aynan shu kunlarda bir emas, ikkita avtobus haydovchisining ham telefonlari yo'qoladi. Yosh tergovchi tezkorlik bilan fuqarolarning guvohliklarini to'pladi. Videokuzatuv vositalaridagi yozuvlarni o'rgandi. Natijada o'g'irlik jinoyatlari shu

kunning o'zida, «issiq izida» ochildi. Bu o'g'irliklarni shu yerlik muqaddam sudlangan 30 yoshli shaxs sodir etgani isbotlandi.

Garchi yosh xodim bo'lsa-da, kapitan Jamshid Turdiqulov tomonidan yuritilgan jinoyat ishlari soni bir necha yuzdan oshgan. Mas'uliyat-liligi, odamlarning tinchligi, mol-mulkiga tajovuz qilgan shaxslarga qarshi kurashdagi fidoyiligi bir necha bor rag'batlantirilgan.



SIRDARYO VILOYATI

Sirdaryo viloyati IIB HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga har gal borganimizda, qalbimiz larzaga keladi. Boisi, bu «sohil»ga hayot to'liqlari keltirib uloqtirgan bolalar aslida bola emas. Adolatsizlik, hayot uchun kurashning shafqatsiz sahnalari ularning ong-tafakkuriga, qalbiga og'ir jarohat yetkazgan. Markazning asl vazifasi ana shunday bolalarga mehr ko'rsatish, hayotini to'g'ri o'zanga burish, jinoyatga moyil o'smirlar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishdan iborat.

ORZU OSMONIDAGI YULDUZLAR

– Afsuski, muassasamizga bolalarning keltirilish salmog'i kamaygani yo'q, – deydi markaz boshlig'i, kapitan Nodirjon Karimov. – Achinarlisi, oilasini tashlab ketgan bolalarning geografiyasi Farg'ona vodiysi, Jizzax,

pul berib, do'kondan spirtli ichimlik, tamaki keltirishni buyurib kelgan. Profilaktika inspektori mahalla faollari bilan kelishib, qizaloqni markazga joylashtirishga majbur bo'lgan. Agar sud qaror qabul qilsa, ayol onalik huquqidan mahrum qilinib, bola mehribonlik uyiga joylashtiriladi.

Markazda mo'jaza kutubxona bor. Markazning inspektor-psixologlari bolalar bilan tinimsiz mashg'ulot o'tkazib, ularning ruhiy holatini barqarorlashtirishga harakat qilishadi. Natijada bir necha kun o'tgach, bolalar sekin-

Afsuslanarli jihati, muassasaga ba'zan sog'lom, har tomonlama yetuk oilalarning bolalari ham kelib qoladi. To'qlikka sho'xlik deganlaridek, ularning ayrimlari zamonaviy xususiy maktablarga joylashtirilgan bo'lsa-da, o'qish bilan ishi yo'q. Aksincha, o'yin-kulgiga berilgan, kafe-restoranlarga qochib chiqib ketishga urinishgan. Voyaga yetmagan o'smirlarni tungi vaqtda restoranlarda uchratgan xodimlar ularni markazga joylashtirishadi.

Markaz xodimlarining jonbozligi evaziga o'nlab o'smirlar, bolalarning hayoti o'nglanib, jamiyatda o'z



Samarqand viloyatlariga ham borib taqaladi.

Ko'zlari qop-qora, katta-katta, jingalaksoch manavi qizaloq Sayxunobod tumanidan. 9 yoshda. Unga ota-onasi qaramay qo'yan. Ota Rossiyaga ketganicha yillarki daragi bo'lmagan. Ona esa ichkilikbozlikka berilib ketgan. Oiladagi bunday nosog'lom muhitni mahalla profilaktika inspektori bir necha bor yaxshilashga urinib ko'rgan. Lekin, afsuski, ichkilikboz ayol o'z yo'lidan qaytmagan. E'tibordan chetda qolgan qizaloq esa haftalab maktabga bormagan. Ona uning qo'liga



sekin kitob bilan oshno bo'la boshlashadi. Muassasada zamonaviy mini stadion, sport maydonchasi ham barpo etilgan. Futbol, stol tenisi, ayniqsa, bolakaylarning jon-u dili.

o'rnini topishgan. Markazda yaratilgan shart-sharoitlar, xodimlarning fidoyiligiga nazar solib aytish mumkinki, ana shunday ezgu amallar bundan keyin ham davom ettiriladi.

UYDA TINCHI
BO'LSIN AYOLNING

Xovos tumani «Tinchlik» mahallasida istiqomat qiluvchi Nazirjon (ismlar o'zgartirildi)ning qaramog'ida yetti kishi bor. Turmush o'rtog'i va farzandlaridan tashqari, opasi turmushidan ajrab, ikki bolasi bilan qaytib kelgan.



Nazirjon imkon darajada farzandlari va jiyanlarini kam-ko'stsiz qilishga harakat qiladi. Kirakashlik qilib topganini uyiga tashiydi. Lekin xotini bilan opasi o'rtasida jiddiy kelishmovchilik bor. Xotini qaynopasining qaytib kelganidan norozi. Opa esa, o'z ota uyimdaman-ku, deb o'zini himoya qiladi. Nazirjon «bosh yorilsa, do'ppi ostida» degan naqlga amal qilib, oiladagi mojaroni ko'chaga olib chiqmaslikka harakat qilib ko'rdi. Lekin ba'zan tong otguncha cho'ziladigan mojaroga qo'shnilar, profilaktika inspektori bosh qo'shishga majbur bo'ldi.

Ana shunday janjallardan biriga tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Mahliyo Hamroyeva aralashdi. U avvaliga og'ir-vazminlik bilan masalani atroflicha surishtirdi. Hamma bilan birma-bir suhbatlashdi. Bolalarning o'qishi bilan qiziqdi. Keyin esa turmushi buzilgan opani olib chiqib ketdi.

U o'sha kuni tuman hokimligida bo'lib, mas'ullar bilan uchrashdi. Vaziyatni tushuntirdi, maslahatlashdi.

Sa'y-harakatlar samara berib, ikki farzandli ayolga ko'p qavatli uylardan subsidiya asosida kvartira ajratiladigan bo'ldi. Oradan bir oy o'tgach, barcha hujjatlar rasmiylashtirildi. Yangi xonadonga ko'chib kirgan ayolning quvonchini so'z bilan ta'riflashning iloji yo'q. Bu orada u Mahliyo Hamroyevaning tashabbusi bilan tikuvchilik sexiga ishga joylashtirilgan, topish-tutishiga baraka engandi.

– Asli farg'onalikman, taqdir meni Sirdaryoning Xovosi bilan tutashtirgan, – deydi lavhamiz qahramoni. – Qariyb uch yildirki, hozirgi lavozimimda ishlab kelyapman. Notinch oilalarda bo'lganimda, mojarolarning asl sabablarini aniqlashga harakat qilaman. Shunga ko'ra, mutasaddi tashkilotlar vakillari, «mahalla yettligi», kayvoni onaxonlar, qolaversa, tajribali ustozlarim ko'magida muammolarni bartaraf etishga kirishaman.

Mahliyo Hamroyeva joriy yilning o'zida buzilish arafasida turgan 18 ta oilani saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Demakki, shuncha oilaga o'zaro ishonch va hurmat, osoyishtalik, xotirjamlik qaytdi.

«YASHIL» TOIFADAGI «AHILLIK»

«Ahillik» – Sirdaryo tumanidagi Qozog'iston bilan chegarada joylashgan mahalla. Uch mingga yaqin aholi yashaydigan hudud. Ikki yildirki, mahalla «yashil» toifada. Bunga o'z-o'zidan erishilgani yo'q. «Mahalla yettligi»ning o'zaro hamjihatlikdagi harakati, uzoqni o'ylab tuzilgan chora-tadbirlarning amalga tatbig'i muvaffaqiyatga zamin yaratdi.

Chegara hudud bo'lgani bois, jamoat tartibini saqlash, chegarani noqonuniy kesib o'tishlarning oldini olish vazifasi doim kun tartibida. Bu borada aholi o'rtasida profilaktik-targ'ibot ishlari muntazam olib borilyapti.

– Chegaradan ikki hatlab o'tilsa, qozoq birodarlari-miz diyori, – deydi mahalla profilaktika inspektori,

podpolkovnik Jahongir O'rinboev. – Ularda ham, bizda ham kimningdir jiyani, kimningdir tog'asi, quda-andasi yashaydi.

E'tiborlisi, qo'shni davlat bilan o'zaro mustahkam qarindosh-urug'lik aloqalariga qaramay, keyingi paytda chegarani noqonuniy kesib o'tishga yo'l qo'yilmagan. Mahalla ahliga suveren davlatning

o'z iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy manfaatlarini borligi atroflicha targ'ib qilingan. Davlat chegaralarining daxlsizligini saqlash orqaligina jamiyatda o'zaro tinchlik, farovonlikni ta'minlash mumkinligi uqtirilgan. Aynan shu yo'nalishda o'ttizdan ortiq davra suhbatlari, mahalla faollarining yig'ilishlari tashkil etilgan. Mahalladagi ta'lim muassasalari,



oilaviy poliklinika, korxonalar-da uchrashuvlar uyushtirilgan. 1-sonli IIB tomonidan tashkil etilgan targ'ibot tadbirlariga harbiy qism komandirlari ham taklif qilingan.

Yana bir gap. Aholi qo'shni respublikaga bor-yo'g'i o'n kilometr naridagi chegara o'tkazish punkti orqali o'tishi mumkin. Buning uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mana shunday qulayliklar natijasida chegara daxlsizligi ham, aholi osoyishtaligi ham ta'minlanmoqda. Eng muhimi, mahallada kriminogen vaziyat nazorat ostida.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Abdurahmon MUSTAFOQULOV tayyorladi.



ЖОНКУЯР ВА ФИДОЙИ

Ўзбекистон тумани «Конизар» МФЙ Дашт қишлоғида истиқомат қилувчи ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник Ибрагимжон Турғунов гарчи 70 ёшни қаршилаётган бўлса-да, ғайрат-шижоатда ёшлардан қолишмайди.

Айни пайтда туман ИИБ бошлиғи маслаҳатчиси ва фахрийлар кенгаши раиси бўлиб хизмат қилаётган устоз шундай эслайди:

– 1976 йил Ўзбекистон тумани Ички ишлар бўлимига ҳайдовчи бўлиб ишга кирганимда ёш йигитча эдим. Ўшанда бўлим бошлиғи бўлган подполковник Шодмон Усмонов, полковник Бегали Раҳмоналиевлардан касб сирларини ўрганиб, тажриба орттирдим. Фидойи устозларимнинг ўғитлари ҳалигача мени тўғри йўлга чорлаб туради.

Ўз олдида катта мақсадларни қўйгани сабабли хизмат билан узвий равишда сирдан таълим олиб, 1981 йилда кичик лейтенант унвони билан вояга етмаганлар инспектори бўлиб ишлай бошлади.

Шундан сўнг 32 йил давомида профилактика инспектори, катта инспектори, ҚООБ бошлиғи, паспорт бўлинмасида бошлиқ, туман ИИБ бошлиғининг ўринбосари

каби вазифаларда самарали хизмат қилиб, подполковник унвони билан 2006 йилда пенсияга чиқди ҳамда 2013 йилгача Ўзбекистон тумани Фавқулудда вазиятлар бўлими бошлиғи бўлиб ишлади.

2018 йилдан бошлаб тумандаги бир неча мактабда чақириқча бошланғич ҳарбий таълим ўқитувчиси бўлиб ишлади. Ҳозирда Қўқон шаҳридаги 3-мактабда чақириқча бошланғич ҳарбий таълимдан ёшларга сабоқ бермоқда. Унинг бошчилигида мактаб ўқувчиларидан иборат жамоа «Яшил чироқ» мусобақасининг шаҳар ҳамда вилоят босқичларида юқори ўринларни банд этаётгани эътирофга сазовордир.

Лавҳамиз қаҳрамонининг туман ИИБ бошлиғи маслаҳатчиси ва фахрийлар кенгаши раиси сифатидаги фаолияти ҳам таҳсинга лойиқ. Фахрийлар иштирокида турли маънавий-маърифий тадбирлар, уч авлод учрашувларини



ташқил этади. Уларни тарихий қадамжоларга саёҳатга олиб боради, бемор бўлганларини йўқлайди. Ёш инспекторларга мураббий этиб бириктирилган фахрийлар ишини мувофиқлаштириб, ёшларга маслаҳат ва тавсиялар беришдан эринмайди.

Унинг жонсараклиги ва фидойилиги эътиборга олиниб, 2024 йилда «Ички ишлар органла-

ри фахрий ходими» кўкрак нишони билан тақдирланган.


Турмуш ўртоғи билан ҳамжihatликда 5 қиз ва 1 ўғилни муносиб тарбиялаган устоз айни кунда 29 нафар неварга ҳамда 4 нафар чевара даврасида кексалик гаштини сурмоқда.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

▶ МАЪНАВИЯТ МАРШРУТИ

ХЎЖАМАЙХОНА ЗИЁРАТГОҲИ



Атрофи қалин дарахтлар билан ўралган Хўжамайхона зиёратгоҳи Бойсун туманининг Дарбанд қишлоғида жойлашган. Ушбу манзилгоҳнинг тарихи XV асрга бориб тақалади.



Маҳаллий аҳоли орасидаги ривоятларга кўра, Хўжамайхона зиёратгоҳидаги қабр Ҳазрати Али (р.а.)га тегишли. Ҳазрати Али Ўрта Осиёга келмаган, лекин шунга қарамай Алавийлар билан боғлиқ қарашлар кенг тарқалган. Бундан Али ва унинг авлодларини ардоқлаш Сурхондарё вилоятида ҳам қадриятга айланганини кўришимиз мумкин.

Хўжамайхона суви тоғ остидан, қарийб 10 километр ичкаридан чиқади. Унинг туби қаерда экани номаълум. Япон олимлари томонидан олиб борилган тадқиқотларга қараганда, Хўжамайхона суви Осиё китъасидаги энг тоза, филтрлан-



ган шифобахш сув ҳисобланиб, унда инсон организмга фойдали бўлган темир ва олтин моддалари мавжуд.

Хўжамайхона зиёратгоҳи ҳудуди табиий манзараси, тоғ ҳавоси, сувининг тиниқ, тотли, шифобахшлиги билан кишини ҳайратга солади. Бундай қадамжолар нафақат зиёрат объекти, балки табиий пайдо бўлган экотуристтик ҳудуд ҳам саналади. Шу боис манзилгоҳнинг гўзал табиати, сўлим ва салқин ҳавоси йилдан-йилга маҳаллий ва хорижий зиёратчиларнинг ошишига сабаб бўлмоқда.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА
тайёрлади.

БУДУЩЕЕ НАЧИНАЕТСЯ СЕГОДНЯ

ЛИДЕР В УЧЕБЕ
И СПОРТЕ

Шахбоз Асатуллаев ученик Навоийского академического лицея МВД. Проявил себя как целеустремленный и разносторонне развитый юноша.

Шахбоз — не только прилежный ученик, но и перспективный спортсмен. Он окончил IT-школу по направлению «Программирование», продемонстрировав интерес к сфере высоких технологий. Однако главной его страстью стал армрестлинг. В 2024 году он занял первое место в чемпионате Навоийской области среди юношей в весовой категории до 50 кг.

В том же году Шахбоз Асатуллаев завоевал золотую медаль на чемпионате Азии по армрестлингу. Победа принесла ему титул чемпиона, став значимым достижением не только для самого спортсмена, но и для всего региона.

Мы гордимся достижениями Шахбоза и уверены, что впереди его ждет еще немало побед. Он — достойный представитель молодежи Навои и вдохновляющий пример для сверстников.

Соб. корр.

ИЗ СЛЕДСТВЕННОЙ ПРАКТИКИ

ИСТОРИЯ ОБМАНА

Нодир Н., просматривая вакансии на сайте объявлений, наткнулся на одну, которая его заинтересовала. Она была адресована владельцам конкретной марки автомобиля. Позвонив по указанному номеру, он уточнил условия. Собеседник объяснил, что работа заключается в доставке товара по торговым точкам. Еженедельные выплаты и, как бонус к этому, проценты от реализации, предусмотрены доплаты за бензин и обед...

На следующий день Нодир подъехал к месту встречи на своем автомобиле. Тихая улица в махалле никак не походила на место, где могут располагаться производственные цеха. Выйдя из машины, мужчина огляделся по сторонам. В этот момент из-за поворота неторопливо появился молодой человек в домашней одежде. Нодир подумал, что это местный житель, вышедший в магазин, однако тот направился прямо к нему. Не совсем таким представлял себе Нодир вчерашнего собеседника: разговор оставил у него ощущение силы и уверенности, которые должны присутствовать в работодателе. А тут предстал персонаж в заношенной одежде... Мужчины поздоровались. Через несколько секунд сомнения Нодира улетучились, и он, как замороженный, уже покорно кивал головой. Перед собой он воочию увидел того самого вчерашнего человека, который произносил слова твердо, со знанием дела. Молодой человек предложил стать его партнером:

вместе выкупают товар, а затем развозят по торговым точкам, прибыль делят пополам. От Нодира требовалось на сегодня лишь оплатить часть суммы от стоимости товара, а на следующий день уже приступить к работе, то есть начать развозить его по адресам торговых точек, которые укажет Бахром (такое имя было в объявлении).

Нодиру показалось, что удача повернулась к нему лицом. С надеждой о скором заработке, не раздумывая, он перевел на счет пластиковой карты Бахрома 2 500 000 сумов. Но все оказалось прозаично просто: ни на следующий день, ни через неделю и даже ни через месяц их сделка не осуществится, так как «Бахром» окажется мошенником. В ходе предварительного следствия будут выявлены еще два разыгранных эпизода. Также установят личность подозреваемого. Им окажется 34-летний житель столицы Шухрат А.

По данному факту СО при УКД ОВД Мирабадского района города Ташкента было возбуждено уголовное дело. После окончания предварительного следствия с обвинительным заключением оно было направлено в суд для принятия законного решения. Общая сумма ущерба составила 7 500 000 сумов.

Решением Мирабадского районного суда по уголовным делам Шухрат А. признан виновным в совершении преступления, предусмотренного вышеуказанной статьей УК. Ему назначено соответствующее наказание.

Эльвира САЛИЕВА,
сержант.

КАШКАДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ

ПОВЫШАЕТСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА



На полевом полигоне «Кўнғиртоғ» войсковой части №7533 Караульных войск МВД регулярно проводятся практические занятия для представителей территориальных и отраслевых подразделений УВД области.

Недавно здесь прошли занятия для сотрудников дежурных частей, а также привлекаемых к охране зданий

органов внутренних дел. Отрабатывалась слаженность действий при чрезвычайных ситуациях, навыки приме-

нения специальных средств и стрельбы из боевого оружия. Подобные тренировки способствуют повышению боевой готовности и профессионального мастерства личного состава.

Шерзод БЕРДИКУЛОВ,
капитан.

БИЗНИНГ СУХБАТ

ШУХРАТ ДИЛЛАЕВ:

ҲАҚИҚИЙ

САНЪАТНИНГ

БАҲОСИ ЙЎҚ

– Сизни кўшиқларингиз орқали биламиз. Келинг, ўқувчиларимиз учун ўзингиз ҳақингиздаги маълумотлар билан ўртоқлашсангиз...

– Қашқадарё вилоятининг Касби туманида, санъаткорлар оиласида дунёга келганман. Отам раҳматли миллий ашуларни маромига етказиб ижро этган ҳофиз эди. Мусиқага қизиқишимга айнан у киши сабабчи. Илк устозим ҳам отам бўлади.

Оилавий муҳитдан келиб чиқиб, 7–8 ёшларимдан санъат оstonасига илк қадамларни қўйганман. Икки йил скрипка ва фортепианода, беш йил доирада машқ қилганман. Кейинчалик санъат олийгоҳида таҳсил олдим. Ёшлигимдан кўплаб республика танловларида қатнашиб, ғолиблар сафидан жой олганман. Ижодимга келсак, 2015 йили Мулла Тўйчи

– Кўп кўшиқларингизда хоразмча рух уфуриб туради. Бунинг боиси нимада?

– Болалигимдан Ўзбекистон халқ артисти, Тожикистон халқ ҳофиз, кўшиқчилигимизнинг ёрқин намояндаси Оғабек Собиров ижодига ҳавас қилиб улғайдим. У киши билан танишиб, сабоқларини олиб, устоз-шогирд бўлганимизга ҳам 20 йилдан ошибди. Устозим берган ўғитлару насиҳатларга амал қилиб кам бўлмадим.

Хоразмча рухга келсак, юқорида айтганимдек, устознинг кўшиқларини ихлос ва ҳавас билан хиргойи қилиб улғайганман. Менимча, шунинг таъсири. Кейинчалик ўзимнинг муаллифлик ашулаларим пайдо бўлди. Йўлимни топиб олдим. Асосан жонли ижрода куйлайман.

айта оларди. Ҳозир икки акам – Хуршид ҳамда Фурқат Диллаевлар мен билан ҳамроҳ. Бири аккордеон, яна бири доира чалади. Санъат қон-қонимизга сингиб кетган. Ҳаётимизнинг бир кунини ҳам усиз тасаввур қила олмаймиз. Санъат инсон қалбини поклайди, унинг ҳар томонлама камол топишида муҳим восита бўлиб хизмат қилади.

– Бугун ҳар кун, ҳар қадамда янгидан-янги хит кўшиқлар яратилмоқда. Аммо ҳаммасининг ҳам савияси юқори, дея олмаймиз...

– Ҳозир мухлислар кўнглини олиш жуда қийин бўлиб қолди. Ҳақиқий санъат ўрнига «қора пиар»лар ҳазм қилинماпти. Соҳага қадам қўйганимдан буён юздан ортиқ муаллифлик кўшиқларим, ўнга яқин мусикий альбом, йигирмадан зиёд клипларим оммага ҳавола этилди. Мунтазам равишда Ўзбекистон телевидениеси ва радиоканалларда ижодимиз эфирга узатилиб борилади. Кўрсатувлару радиоэшиттиришларда тез-тез меҳмон бўламиз.

Нима демоқчиман? Бугун ҳақиқий ижод учун ҳамма шароитлар бор. Бироқ, юқорида айтганингиздек, баъзан савия масаласи кишини ўйлантириб қўяётгани ҳам бор гап. Шахсан ўзим нимаки яхши ижро қилинган ижод намунаси борки, мириқиб эштаман. Хонандаларни ажратмайман. Сабаби, ҳар бир ижодкорда битта бўлса ҳам «ташриф қоғози»га

айланган кўшиқлари бўлади. Лекин бўлар-бўлмас, оғизга келган сўзлардан кўшиқ қилиндими, билингки, бу санъат эмас. Ҳақиқий санъатнинг баҳоси анча қиммат туради. Яъни, баҳоси йўқ!

– Янги ижод намуналарингиз ҳамда мухлислар учун олдинда яхши янгиликлар борми?

– Албатта. Янги-янги кўшиқлар ёзилмоқда. «18 ёш», «Лаълижон», «Унутолсайдим», «Онажоним», «Ота», «Аразлаган», «Бу севги», «Моҳим», «Бека» сингари тароналаримизни мухлислар қайта-қайта сўрашади. Олдинда премьералар бисёр.

Шу йил охири ёки кейинги йил бошида «Халқлар дўстлиги» санъат саройида яккахон концерт дастуримни тақдим этиш ҳаракатида юрибман. Ўйлай-

манки, халқимизга манзур бўладиган, асосан жонли ижродаги концерт бўлади. Бундан ташқари, яқинда 20 га-яқин классик кўшиқларим жамланган альбомни ҳам тақдим этамиз.

– Сухбатимизни асосан кўпнинг сонли ички ишлар органлари ходимлари ҳамда уларнинг оила аъзолари ўқишади. Яқин орада сиздан ходимларга бағишланган янги тухфани кутишимиз мумкинми?

– Осойишталик побонларини ҳар қанча шарафласак кам. Керак бўлса, жон фидо қилаётган ходимларни кўриб турибмиз. Уларнинг машаққатли ва шарафли фаолиятини очиб берувчи яхши шеър ва ғояни сайқаллаб, тухфа этиш ниятимиз бор.

– Мазмунли сухбатингиз учун ташаккур!

Аброр ПОЁНОВ
суҳбатлашди.



Хонанданинг
кўшиқларини эшитиш
учун QR код.



Тошмуҳамедов номидаги Қашқадарё вилоят мусиқали драма театрида илк яккахон концертимни берганман, 2018 йилда эса «Халқлар дўстлиги» санъат саройида.

– Оилангизда яна кимлар санъат соҳасида?

– Бобом ҳам кўшиқ куйлаган. 95 ёшда, умрининг сўнгги лаҳзаларига қадар кўшиқларни равон, ўз йўналишидан чиқмасдан



ФАРЗАНД КАМОЛИ

«ҚИЗИМДАН УМИДИМ КАТТА»

Фарғона тумани ИИБ ҳузуридаги тергов бўлинмаси суриштирувчиси, лейтенант Зарифа Тўхтаназарованинг телефони жиринглади.

– Ассалому алайкум, сизга хушхабарим бор, – деди ўзини вилоят ИИБ масъул ходими деб таништирган йигит. – Ёшлар куни муносабати билан намунали хизмат қилаётганлигингиз сабабли сизнинг ота-онангизга Ички ишлар вазири номидан миннатдорлик келди. Эртага бошқармада бўлиб ўтадиган тантанали тадбирда ота-онангиз билан иштирок этишга таклиф қиламиз.

Зарифа ишдан уйга қайтиб, ота-онасига хушхабарни айтгунча юраги ҳаққириб юрди. Бу хабардан дадаси Ҳамрали ака, волидаси Мукаррамхон онанинг қувонганини айтмайсизми?

Эртасига бошқармада ўтказилган катта тадбирда Ҳамрали ака қизи билан иштирок этди. Вилоят ИИБ бошлиғи, генерал-майор Азизбек Икромов миннатдорлик хатини отанинг қўлига топшираркан, «Яхши қиз ўстирганингиз учун сизга катта раҳмат. Ана шундай билимли, намунали, касбига садоқатли ёш ходималар соҳамизнинг муносиб давомчиларидир. Биз улар билан фахрланамиз», деди.

Бундай эътирофдан сўнг Ҳамрали аканинг кўзларида севинч ёши қалқиди.

Зарифа Тўхтаназарова Қувасой шаҳрининг «Исфайрамсой» маҳалласида туғилиб камолга етган. Болалигида дадасининг бир гапи унинг қулоғига чалинади: «Ички ишлар органларига ишга киришни жуда-жуда орзу қилган эдим, афсуски, бу орзумига етолмадим. Энди фарзандларим шу соҳага ишга кирса, армоним қолмасди».

Дадасининг бу гапидан сўнг қизалоқнинг мурғак қалбида орзулар ин курди. Шу боис ички ишлар органлари ходимларини кўрганида доим ҳавас билан қараб қолар, башарти, мактабга келиб тадбир ўтказишса, уларга савол бериб чарчамасди.

2020–2023 йилларда ИИБ Академиясида таҳсил олиб, олий даргоҳни тамомлаган куни дадаси қанчалар қувонган бўлса, вазирнинг миннатдорлигини олгач, бу қувончи чандон ортди.

Зарифа ҳозирда суриштирувчи сифатида намунали хизмат қилиш билан бирга, ўқиб-изланишдан сира тўхтагани йўқ. Фарғона техника университетида ахборот



хавфсизлиги йўналишида иккинчи мутахассислик учун сиртдан таҳсил олмоқда. Шу билан бирга, соҳа ходимлари ўртасида ўтказилаётган турли кўрик-танловлар, «Заковат» баҳслари ва спорт мусобақаларида доим фаол иштирок этиб, юқори ўринларни эгаллаб келмоқда.

– Ота учун фарзандининг ортидан раҳмат эшитиш бу улкан бахт экан, – деди у ҳаяжонини яширолмай. – Айниқса, вазирнинг номидан бундай миннатдорликни

қабул қилиб олиш ҳаммага ҳам насиб этавермайди. «Яхши фарзанд ўстирганингиз учун раҳмат», деган гапни эшитиб, ҳаётда кўрган барча қийинчиликларим, чарчоқларим унутилиб кетди. Қизим бу юксак ишончни муносиб оқлаб, Ватанимиз ва халқимизга садоқат билан хизмат қилишда давом этади. Мен унга ишонаман ва ҳамиша қўллаб-қувватлайман.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

MAHALLA TINCH – YURT TINCH

«TASHVISH TUGMALARI» tashvishsiz yashashni ta'minlayapti

Samarqanddagi Qorasuv massivi shahar ichidagi yangi bir shaharcha, renovatsiya dasturi asosida jadal rivojlanayotgan hududdir. Mazkur massivdagi Bahodir Yalangto'sh nomli mahallada 48 ta ko'p qavatli uy mavjud. Aholi soni kundan-kunga ortib bormoqda. Samarqand shahar IIOFMB 9-sonli IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Jasur Isroilov aholi o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, mahallada xavfsizlikni ta'minlash maqsadida muntazam profilaktik-targ'ibot tadbirlarini olib boradi.



– Mahallamiz doim odamlar bilan gavjum, – deydi katta leytenant Jasur Isroilov. – Shuning uchun mahallaning kirish-chiqish joylariga 250 ta videokuzatuv kamerasi o'rnatilgan. Shuningdek, uylarning kirish yo'laklariga «tashvish tugmalari» o'rnatilib, qo'riqlash pultiga

ulangan. 8 ta PTZ kamerasi qo'yilgan. Kech-qurun mahalla ko'chalarida yoritish chiroqlari yonib turadi, bolalar shod-u xurram o'ynaydi, keksalar dildan suhbat quradi. Bu xavfsizlik, farovonlikdan nishona.

Mahallada jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishda «tashvish tugmalari», videokuzatuv hamda tezkor aloqa tizimlaridan oqilona foydalanilmoqda. Masalan, ko'p qavatli uylarga begona

shaxslarning kirib-chiqmasligi uchun liftlarga domofonlar o'rnatilgan. Ular faqat shu yerda doimiy yashovchi fuqarolardagi maxsus chip-lar orqali ishlaydi. Bu kabi chora-tadbirlar huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatar «issiq izida» fosh etilishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mahallada bugun kim kelyapti, kim ketyapti, shubhali, begona shaxslar darrov nazoratga olingan. Navbatchi patrul-post xizmati mashinalari doimiy hududni aylanib yurishadi. Avtomashina raqami va yuzni tanib oluvchi qurilmalar, kuzatuv kameralari bu jon xaloskoriday. Chunki odamlar «tash-



vish tugmasi»ni bilishadi, buning ortida davlatning g'amxo'rliги bor. Yaqinda bolalar aravachasi o'g'irlangani haqida xabar tarqaldi. Kuzatuv kameralari orqali o'g'ri tezda topildi. Mahallada bunday qurilmalarning o'rnatilgani xavfsizlikni, biz fuqarolarning osuda, xurram hayotimizni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tinchlikni himoya qilish nafaqat kuch bilan, balki aql, texnologiya va birdamlik bilan amalga oshadi. Har bir mahallaga o'rnatilgan «tashvish tugmasi» zamonaviy xavfsizlikning, barqaror xotirjamlikning ramzidir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

ЖЕНЩИНА В ПОГОНАХ

С ДОБРЫМ СЕРДЦЕМ И СИЛЬНЫМ ХАРАКТЕРОМ

В мире, где порой преобладают стереотипы, история Натальи Анатольевны Ильиной является ярким примером целеустремленности, преданности делу и искренней любви к своей профессии. Подполковника Н. Ильину, старшего инспектора отдела профилактики правонарушений УКД ОВД Учтепинского района, отличают не только впечатляющий карьерный путь, но и невероятная человечность.

Наталья Анатольевна родилась 13 мая 1979 года в Ташкенте. Ее путь в правоохранительных органах начался довольно необычно. После окончания юридического колледжа, по совету подруги, она устроилась на вольнонаемную должность в библиотеку Информационного центра ГУВД г. Ташкента. Именно здесь у нее зародилось желание носить форменную одежду и встать на защиту закона. В 2001 году Наталья аттестовалась, а уже через год получила офицерское звание. С тех пор она служит в подразделениях профилактики, став настоящим профессионалом своего дела.

Служба — это не просто исполнение обязанностей, это настоящее призвание. Она со спокойствием относится ко всем нагрузкам. В основном ее деятельность связана с обобщением работы инспекторов профилактики по административным

правонарушениям. Она не просто контролирует, но и анализирует, помогая коллегам в их непростой деятельности.

Наталья Анатольевна не устает благодарить своего наставника подполковника Алишера Абдугаппарова. Именно он с самого начала направлял ее, помогал, давал ценные советы и поддерживал в трудные моменты. И по сей день Алишер Абдугаппаров остается для нее неиссякаемым источником мудрых советов.

Наталья Ильина не представляет себя в другой профессии. Эта внутренняя гармония и любовь к делу позволяют ей эффективно справляться с любыми задачами.

Наталья Ильина — заботливая мама. У нее растет двенадцатилетний сын Амир, который в этом году успешно закончил 6-й класс.

Азиза БОХОДИРОВА,
майор.



Фото Икрома ХАСАНОВА.

САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ

НЕДЕЛЯ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ

В области в рамках Недели кибербезопасности организованы семинары, тренинги, конференции и конкурсы, направленные на формирование цифровой культуры среди различных слоев населения.



Одно из ключевых мероприятий состоялось в Международном университете туризма и культурного наследия «Шелковый путь».

В ходе пресс-конференции сотрудники МВД, Центрального банка представили совместные инициативы по развитию кибербезопасности, профилактике мошенничества в сфере безналичных расчетов. Обсуждены конкретные направления взаимодействия между государственными и частными структурами, а также запланированы новые проекты.

Особое внимание было уделено стремительному росту числа киберпреступлений. Как сообщил представитель Центра кибербезопасности МВД капитан Максуд Мирабдуллаев, за последние пять лет количество киберпреступлений в стране увеличилось в 68 раз.

— Если в 2019 году было зафиксировано 863 преступления 18 видов, совершенных с использованием информационных технологий, то в 2024 году — уже 58,8 тысячи преступлений 62 видов, — отметил он. — Практически каждое второе преступление совершается с применением цифровых технологий. Это требует системного

совершенствования механизмов профилактики.

Преобладающее большинство киберпреступлений (98 %) связано с банковскими картами — это киберкражи и мошенничество. В частности, 60 % слу-



чаев — это получение контроля над картой или мобильным устройством через вредоносные ссылки и программы. Еще 16 % — хищения через доступ к SMS-кодам, 4 % — оформление онлайн-кредитов на чужое имя, 11 % — обман на онлайн-торговых площадках и 9 % — различные схемы незаконного привлечения средств граждан.

Неделя кибербезопасности продолжится серией образовательных мероприятий, направленных на повышение цифровой и финансовой грамотности.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



MULOHAZA

HAMMASI ME'YORIDA BO'LGANI YAXSHI

Jamiatimizning madaniy, ma'naviy qiyofasini shakllantirishning muhim jihatlaridan biri yosh avlodni jismonan va ma'n'an barkamol qilib tarbiyalashdir. «Farzandlaringizga yomon tarbiya berib qo'ymang, loqayd bo'lib qolmang», deydi dono xalqimiz. Chunki ota-onaning shaxsiy ibrati bolaga ko'chadi.

Ma'lumki, «tarbiya» so'zi arabchadan olingan bo'lib «doimiy nazorat, e'tibor» degan ma'noni anglatadi. Demak, biz yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning axloq-odobiga ham e'tibor qilishimiz kerak. Doimo farzandlarimizning yurish-turishidan, gap-so'zidan ogoh bo'lmog'imiz shart. Agar biroz loqaydlik qilsak, oqibatda yoshlarning «tarbiyalovchilari» paydo bo'ladi. Ularning maqsadi esa yoshlarning hali shakllanib ulgurmagan ongini zaharlashdir.

Shuningdek, yoshlarimizga omonatga xiyonat qilmaslikni yaxshi tushuntirish ham muhim ahamiyatga ega. Zero, bugun omonatga xiyonat qilgan odam, ertaga Vataniga, xalqiga xiyonat qilishi mumkin. Shuning uchun yoshlarimizni omonatga xiyonat qilmaydigan qilib tarbiyalashimiz zarur.

Ijtimoiy tarmoqlardan «Bolani yuziga urish uning miyasidagi 300–400 hujayrani o'ldiradi. Boshini silash va mehr berish esa miyada yangi hujayralarni paydo qiladi» deyilgan ma'lumotni o'qib qoldim. Bu qanchalik to'g'riligini bilmadim-u,

ammo urish, qo'rqitish va hattoki po'pisa qilish ham bolajonlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi ayon.

O'zini sababsiz aybdor his qilish ko'pincha yoshlarda uchraydigan ruhiy holat. Bu asosan tug'ma hamda kasallik bo'lib, noto'g'ri tarbiya yoki oiladagi ba'zi muammolar oqibatida yuzaga keladi. Bunday holat esa bolaning jamiyatdan ajrab, boshi berk ko'chalarga kirib qolishiga sabab bo'ladi. Olimlarning ta'kidlashicha, bolada uchraydigan salbiy holatlarning sabablari yoki bola o'zini aybli his qilishiga olib keladigan omillarni asosan tahqirlash, ortiqcha erkalash, bolalarning biridan ikkinchisini ustun qo'yish, tana a'zolaridagi nuqsonlar, yetimlik va kambag'allik yuzaga keltiradi.

Endi yuqoridagi salbiy omillarni birma-bir tahlil qilsak. Haqorat qilish va tahqirlash bolani ruhiy xastalikka olib keladigan, o'ziga ishonchini yo'qotadigan sabablardandir. Ko'pincha bolalar nojo'ya ish qilsa, ota-onasi qattiq koyishadi. Axir bola o'sha ishini bilmasdan yoki tajribasizligi tufayli qiladi. Ba'zan esa bunga



majbur bo'ladi. Ana shunday paytda bolalar ota-onasidan qo'rqqanidan yoki tanbeh eshitmaslik uchun yolg'on gapiradi. Bunga javoban, ota-onalar «Sen yolg'onchisan, ikki dunyoda ham odam bo'lmaysan», deb urishmasa maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki bolaning yolg'on gapirishiga,

«sen» ham, «siz» ham bir og'izdan chiqadi, degan naql bor. Bundan tashqari, bolani aka-ukalari, tengdoshlari, tanish-bilishlari, qarindoshlari oldida uyaltirmaslik, koyimaslik lozim. Bu hol bolani o'ziga past nazar bilan qaraydigan, boshqalarga adovatli va hasadgo'y qilib qo'yadi.

topolmay yuradi yoki aksincha, «omadi chopgan»larga nisbatan g'arazini oshkora namoyish qilish payida bo'ladi. Eng yomoni, oiladagi vaziyat shunday davom etaversa, bolaning ruhan yetuk bo'lib ulag'ayishi qiyin kechadi...

Biz ko'pincha bolalarning qiziqishiga e'tibor qaratmaymiz. Ularning erkin kasb tanlashiga to'sqinlik qilamiz. Iloji boricha, o'zimizga yoqqan yoki orzu bo'lib qolgan kasbni egallaysan deb, doimiy qulog'iga quyib kelamiz. Bu ishimiz xatoligini anglaganimizda esa ancha kech bo'ladi. Ungacha farzandlar ko'plab to'siqlarga uchrab, qiyin ahvolga tushib qolishadi. Shuning uchun bolaning qiziqishlarini inobatga olib, to'g'ri yo'naltirib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

O'smir bolaning qiziqish-u qobiliyatlari ancha namoyon bo'lib qoladi. Kattalar esa ana shu qiziqishlarni rag'batlantirish va iste'dodini rivojlantirib borishi lozim. Qolaversa, kasb bolaning xususiyatlari hamda qobiliyatiga mos bo'lishi kerak. Masalan, adabiyotdan yaxshi o'qisa, undan fizik chiqmasligi mumkin. Yoki sportda ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa-yu, inshoni yaxshi yoza olmasa, ayb unda emas. Xullas, bolaning kuchli taraflariga e'tibor berish o'rinni. Albatta, uni ham, buni ham eplaydiganlar uchraydi, ammo doim emas.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hamma narsaning me'yorida bo'lgani afzal. Shundagina tarbiyada ham «shiraning ozi yaxshi, ko'pi zaharga aylanishining» oldi olinardi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



aybini bo'yniga olmasligiga kattalarning o'zi sababchi. Bola hadeb «sen»lanaversa, siltanaversa, qo'rs hamda «ichimdagini top» qabildi o'sadi. Axir xalqimizda

Bolani haddan ziyod erkalash ham bo'lmaydi. Chunki erka bola ojiz va notavon bo'lib yetishadi. Maqtov va laganbardorlikka moyilroq, tanqidni esa ko'tara olmaydi. Ko'pincha voqea-hodisalariga xolis baho berolmaydi, shubha nazari bilan qaraydi. Eng asosiysi, o'zini boshqalardan orqada qolayotgandek his qiladi. Bola tarbiyasida me'yorga e'tiborliroq bo'linsa, kelajagi porloq bo'lib o'sadi.

Salbiy holatlarning sabablaridan yana biri kambag'allikdir. Aqlini tanigan bolaning ota-onasini og'ir ahvolda, iqtisodiy tang va siqilgan holda ko'raverishi uning odamoviligini, begonalashuvini kuchaytiradi. Chunki ular qo'shnilarining bolasi, maktabdagi do'stlari bilan o'zini taqqoslab, oilaviy yetishmovchilikdan g'amgin holatga tushib, ich-ichidan eziladi. Ko'pincha o'zini yashirgani joy



КИНОЛОГИЯ ХИЗМАТИ

САДОҚАТЛИ ЖОНИВОРЛАР КЎМАГИДА

Чуст туманида истиқомат қилувчи Дониёр Ю. туман ИИБ бошлиғи номига ариза билан мурожаат қилиб, жорий йил 16 май куни далада ўтлаб юрган, нархи 13 млн сўмлик қорамоли ўғирлаб кетилганини маълум қилган.

Мазкур ҳолат юзасидан Чуст тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлини тергов-тезкор гуруҳи таркибида воқеа жойига чиққан Наманган вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ кинология бўлини 4-сонли кинология гуруҳи кичик инспектор-кинологи, сафдор А. Қурбонов хизмат ити – «Флора» ёрдамида воқеа жойидан из олиш учун ишга киришди. Зийрак ва хушёр жонивор қорамол йўқолган жойдан жануб томонга қараб йўналишни белгилаб берган. Олиб

борилган дастлабки суриштирув ҳаракатлари давомида ҳақиқатан ҳам жиноятчи ўша томонга яширингани маълум бўлди. Мазкур жиноятни Чуст туманида яшовчи фуқаролар Д. Ш. ва Р. И. содир этгани аниқланди.

Ҳозирги кунда вилоят ИИБ Жамоат тартибини сақлаш бошқармаси кинология бўлини наслдор хизмат итлари сони 43 бошга етказилди. Ақлли ёрдамчиларнинг 41 боши махсус тайёргарликдан ўтган. Яъни, 4 боши



портловчи моддаларни қидириб топиш, 13 боши гиёҳванд моддаларни излаш, 23 боши из-қидирув ва 1 боши қўриқлаш йўналишлари бўйича тайёрланган.

Ходимларимиз йил бошидан буён хизмат итлари ёрдамида 123 та жиноятни фош этишда иштирок этиб, жиноятчиликнинг пайини қирқишда ва жазонинг муқаррарлигини таъминлашда ўзларининг муносиб ҳиссасини қўшишмоқда.

Жасур БЕКМИРЗАЕВ,
Наманган вилояти ИИБ
ЖХХ ЖТСБ Кинология
бўлини бошлиғи,
капитан.

ЭҲТИЁТ БЎЛИНГ: ФИРИБГАР!

«ПУЛЛАРИНГИЗНИ
КЎПАЙТИРИБ БЕРАМАН...»

Ахборот-коммуникация технологияларининг ҳаётимизга кенг жорий этилиши кўп имкониятлар бермоқда. Афсуски, айрим шахслар бундан ўзининг ғараз ва паст ниятлари йўлида ҳам фойдаланишмоқда.



Пўлатбек (воқеа иштирокчиларининг исмлари ўзгартирилди) ўтган йилнинг декабрь ойида уяли алоқа воситасига таваккалчиликка асосланган қимор ўйини — «1Хбет» мобил иловасини юклаб олади. Онлайн казинога пул тикиб, ўйинни бошлайди. Баъзан ютуқ, баъзан омадсизлик... Шу тариқа у тотализатор деб аталмиш бу ўйиннинг тўрига илинади. Осон келаётган пул унинг ақлини шошириб қўяди, каттароқ маблағ тиксам, кўпроқ ютуққа эга бўламан, деган ўй билан ўйинга тикиш учун пул топиш йўллари излайди.

Шу тариқа у Телеграм мессенжеридида «Halol onlayn daromad» номли канал очиб, одамларнинг пуллари биржа трейдинг орқали кўпай-

тириб беришни ваъда қилади. Карим исмли профил фойдаланувчиси мазкур каналга аъзо бўлгач, Пўлатбек дарҳол алоқага чиқиб, унга ўзини трейдерлик фаолияти билан шуғулланишини, пуллари оз фурсатда кўпайтириб беришини ваъда қилади. Қисқа вақтда кўп пул топиш кимга ёқмайди, дейсиз. Карим ҳам кўп ўйланмай рози бўлади. Пўлат фурсатдан фойдаланиб тезда «1Хбет» мобил иловаси боти томонидан берилган пластик карточка ҳисоб рақамини жўнатади. Карим ушбу ҳисоб рақамига пул ўтказди. Пўлат ундан бўлиб-бўлиб олинган 5 850 000 сўмнинг барини ўйинда ютқазиб қўяди...

Бу орада Карим ундан пуллари ҳақида сўрайди.

Пўлат бамайлихотир улар кўпайганини, карта ҳисоб рақамини ташлаб берса, пул ўтказиб юборишини айтади. Аммо унга бир сўм ҳам пул ташлаб бермайди. Шундай қилиб, Пўлат қасддан содир этган фирибгарлик, алдаш, бировнинг ишончини суиистеъмол қилиш йўли билан ўзганинг мулкини ахборот тизимидан қўлга киритишда ифодаланган ҳаракатларни содир этганликда айбдор деб топилди. Айни пайтда мазкур ҳолат юзасидан дастлабки тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Хулоса ўрнида айтадиганимиз, бу каби алдов замиридаги замонавий фирибгарлик тафсилоти ҳар бир кишини хушёр торттирмоғи лозим. Унутманг, фирибгар кимсалар ўз ғаразли мақсадини содир этишда асосан одамларнинг содда ва ишонувчанлигидан фойдаланади. Демак, бундан келиб чиқадиган хулоса шуки, хушёрлик, атрофга синчковлик билан қараш бундай жиноятларнинг олдини олишда асосий восита саналади.

Суннатилла АБДУРАШИДОВ,
Чиноз тумани ИИБ
ҳузуридаги Тергов
бўлини терговчиси,
капитан.
Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.

Тошкент вилояти.

ЖИНОЯТГА ЖАЗО МУҚАРРАР

БИЛАГИГА
ИШОНГАННИНГ БОШИ ХАМ

Сирожиддин (исм-шарифлар ўзгартирилди) вояга етмаган жиноий шериклари – Иззатилла ва Хусниддин билан биргаликда кечаси Юнусобод туманида яшовчи фуқаро Фармонга нисбатан очиқдан-очиқ зўравонлик қилган. Улар қурол сифатида фойдаланилган ўткир тигли буюм билан таҳдид қилиб, жабрланувчининг телефони, нақд пули ва банк картасидаги маблағларини босқинчилик йўли билан тортиб олишган.

Зўравонлар жиноят содир қила туриб, жабрланувчига шахсий мулк бўлган телефонини қайтариб бериш эвазига ундан 1 500 000 сўм талаб қилиб, товламачилик жиноятини содир этишган.

Афсуски, ўз қилмишларини амалга оширишда вояга етмаганларни жалб қилиш, юртимиз келажаги бўлган ёшларни жиноятга ундаб, уларнинг онгига жиноий фикрни сингдириш катта фожага олиб келиши мумкин.

Буни қарангки, Сирожиддин аввал ҳам ўзининг хурмача қилиғини кўрсатган экан. У тиш шифокори Мухриддинга мушт тушириб, унга ўртача оғир шикаст етказган. Муштумзўр ўзини «мушугини пишт дейдиган» одам топилмайдиган

гандек ҳис қилиб, кетма-кет жиноят содир эта бошлайди. Ўзини шер билган Сирожиддин 27 июнь куни Юнусобод туманидаги кўп қаватли уй олдида жиноий шериклари билан жамоат



тартибини қасддан бузиб, фуқаро Дилшодни асоссиз равишда бесоқолбозликда айблаб, танасининг турли қисмига уриб-дўппослаб, енгил тан жароҳати етказган.

Юнусобод тумани бўйича ИИОФМБ ҳузуридаги Тергов бўлими катта терговчиси, капитан Ф. Шариповнинг таъкидлашича Сирожиддин томонидан содир этилган жиноят нафақат уларнинг миқёси ва қўлланган зўравонлиги билан, балки қайта-қайта такрорланиши, вояга етмаганларни жалб қилиши ва жамоат тартибини менсимаслиги билан ҳам жамиятга жиддий хавф туғдиради.

Қонун ҳаммага баробар. Сирожиддинга барча қилмишлари учун қонуний чора кўрилиб, суд томонидан тегишли жазо тайинланди.

Гўзал ЖАФАРОВА,
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.



SAYYOHLAR XAVFSIZLIGI – ISHONCHLI QO'LLARDA



Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, sayyohlarga xizmat ko'rsatish tizimini tubdan yaxshilash, qulay hamda xavfsiz xizmatlar ko'rsatishni yanada kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Shahrisabz tumanining «Miraki», «Uloch», «Polmon» va Amir Temur nomli mahalla fuqarolar yig'inlari hududidagi umumiy maydoni 240 gektar bo'lgan yer uchastkasida «Shahrisabz» turistik markazi tashkil qilindi.

Turistik markaz bir vaqtning o'zida 30 ming sayyohni qabul qila oladi. Bu yerda 2 ta mehmonxona, 1 ta xostel, 285 ta oilaviy dam olish maskani, shuningdek, umumiy ovqatlanish joylari, avtoturargohlar, savdo do'konlari, 2050 metr uzunlikdagi dor yo'li, sog'lomlashtirish markazi, tematik bog', salomatlik yo'lagi, osma ko'priq, «Hisorak» suv omborini tomosha qilish maydoni, arg'imchoq, ziplayn kabi ko'ngilochar obyektlar joylashgan.

Hozirda turistik markazga har kuni o'rtacha 15 ming nafar sayyoh tashrif buyurmoqda. Kelgusida mazkur ko'rsatkich kuniga 25 mingtani, yiliga o'rtacha 1 million 100 ming nafarni tashkil etishi

kutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sayyohlar xavfsizligini samarali va ishonchli ta'minlashni taqozo qiladi.

Qashqadaryo viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi shaxsiy tarkibi tomonidan mahalliy va xorijiy sayyohlar hamda xorijiy davlat delegatsiyalari vakillarini kutib olish, xavfsizligini ta'minlash va kuzatish ishlari tashkil etilib, tashrif davomida ko'ngilsiz holatlarga yo'l qo'yilmay kelinmoqda. Turistik markaz direksiyasi mablag'i hisobidan boshqarma ixtiyoriga 4 nafar xodim ajratilib, 3 ta patrullik yo'nalishida xizmat olib borilishi yo'lga qo'yildi. Xodimlar uchun markaz

hududidan xizmat xonasi ajratildi, shuningdek, 3 ta ko'chma mobil post o'rnatilib, zarur buyumlar bilan jihozlandi.

Sayyohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida turistik markaz hududiga jami 218 ta intellektual videokuzatuv kamerasi o'rnatilib,



barchasi xizmat xonasidagi kuzatuv markazi va «Qalqon» dasturiga integratsiya qilindi. Ayni paytda turistlar ishtirokidagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash, hududdagi vaziyatni doimiy nazorat qilish uchun uchuvchisiz uchish apparati (dron)dan foydalanib kelinmoqda.

Viloyat Qo'riqlash boshqarmasi tomonidan markaz hududidagi jami 105 ta, shu jumladan, 62 ta obyekt qo'riqlovga olinib, 41 ta obyektga «tashvish tugmalari» o'rnatildi va obyektlarni qo'riqlashga 12 nafar xodim ajratildi.

Javlonbek ALLAYEV,
kapitan.
Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



KO'HNA XIVAGA SAYOHAT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi «2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilingan edi. Ushbu hujjatga muvofiq, joriy yilning iyun oyidan boshlab, har oyning ikkinchi haftasining shanba va yakshanba kunlari «Oila va jamoa bilan sayohatga chiqish kuni» etib belgilangan. Bundan ko'zlangan maqsad «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirishdan iborat.

Ayni shu maqsadda Navoiy viloyati IIBning 50 nafarga yaqin xodimi va ularning oila a'zolari uchun ochiq osmon ostidagi muzey-shahar – ko'hna Xivaga sayohat tashkil etildi. Barchada qadimiy Xivaning tarixiy obidalari, o'ziga xos me'morchilik namunalari, ayniqsa, Ichan qal'a majmuasining betakror ko'rinishi chuqur taassurot qoldirdi. Ular buyuk faylasuf shoir Pahlavon Mahmud maqbarasini ziyorat qilishdi.

So'ng Urganch shahriga yo'l olishdi. Bu yerda xalqimizning milliy qahramonlaridan biri bo'l-

gan Jaloliddin Manguberdi haykali poyiga gullar qo'yishib, uning bosqinchilarga qarshi kurashish chog'ida ko'rsatgan jasoratini yodga olishdi.

Bunday sayohatlar avvalambor yurtimiz tarixi, tabiati, bugungi hayoti bilan yaqindan tanishish, madaniy hordiq chiqarish imkonini beradi. Qolaversa, xodimlar o'rtasidagi do'stlik va birdamlikni mustahkamlaydi, oilaviy qadriyatlarni yuksaltiradi, yoshlar qalbida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytiradi.

O'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



SALOMATLIK SABOQLARI

TABIY, YAXNA VA SHIFOBAXSH

Yozning jazirama issiq kunlarida organizm suvsizlanmasligi uchun ko'p miqdorda suyuqlik ichish tavsiya etiladi. Chanqoqni qondirish maqsadida mineral suv bilan bir qatorda, tanani turli foydali moddalar va vitaminlar bilan boyitishga yordam beradigan tabiiy meva va sabzavotlardan uy sharoitida tayyorlangan sharbatlarni ichish ham maqsadga muvofiqdir.

Anor sharbati. Uning tarkibida qon quyulishini susaytiruvchi K vitamini, gemoglobin ishlab chiqilishini rag'batlantiruvchi temir moddasi, qon hosil bo'lishida ishtirok etuvchi



foliy kislotasi, yurak faoliyati va shishlarning oldini olish uchun zarur bo'lgan kaliy, immunitetni mustahkamlovchi C vitamini va antioksidantlar mavjud. Shuningdek, ichak faoliyati va mikroflorasi uchun foydali bo'lgan kletchatka hamda ich ketishini to'xtatuvchi oshlovchi moddalar bor.

Ananas sharbati. Kaliy, magniy, fosfor, temir moddalari, A, C, E, B2, RR



vitaminlari va minerallarni o'z ichiga olgan ushbu mazali ichimlik shamollash paytida immunitetni ko'tarishga yordam beradi, qon quyulashishining oldini oladi, tanadagi shishlarni bartaraf etadi, og'ir jismoniy harakatlardan so'ng mushak to'qimasini tiklaydi, parvoz chog'ida ko'ngil aynishidan xalos etadi. Yangi siqilgan sharbat tarkibida yog'lar parchalanishini tezlashtirib, modda almashinuvini me'yorlashtiruvchi brome-layn fermenti mavjud bo'lib, u ozishga yordam beradi.

Apelsin sharbati. Vitamin va minerallarga boy bo'lgan bu ichimlik qonni tozalash-



da faol ishtirok etadi va tomirlarni mustahkamlovchi xususiyatga ega. Bir stakan sharbat ichish orqali C vitaminining kunlik me'yorini to'ldirish mumkin. Bunday sharbat immunitetni oshiradi, ovqat hazmini yaxshilaydi va parhez mahsulot hisoblanadi.



Olma sharbati. Ushbu mazali va foydali ichimlik temir, magniy, natriy, fosfor moddalari hamda C, E va B guruhi vitaminlarini o'z ichiga oladi. Olma tarkibidagi pektin prebiotik hisoblanib, oshqozon ichak trakti faoliyatini yaxshilaydi, xolesterinni kamaytiradi. Gemoglobinni oshirish uchun ham tabiiy olma sharbatini ichish tavsiya etiladi. Bu ichimlik peshob haydash xususiyatiga ega bo'lib, organizmdan radionuklidlar chiqarilishiga yordam beradi.

Pomidor sharbati. Aminokislota, vitamin va minerallarga boy bo'lgan pomidor sharbati immunitetni oshiradi, tuz balansini to'ldiradi hamda peshob haydash xususiyatiga ega. U qon bosimining bir tekis, ammo tez tushishiga xizmat qiladi, sistolik (yuqori)



va diastolik (past) bosimni me'yoriy ko'rsatkichga keltirib, «zararli» xolesterin miqdorini kamaytiradi.



Oshqovoq sharbati. Ushbu mahsulot ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Vaholanki, uning tarkibida ko'p miqdorda beta-karotin hamda A, E va C vitaminlari bor. Bundan tashqari, yallig'lanishni bartaraf etuvchi va jarohatlar tez bitishiga xizmat qiluvchi rux, yurak-qon tomir faoliyati uchun zarur bo'lgan kaliyni o'z ichiga oladi. Oshqovoq sharbati safro haydovchi xususiyatga ega. U jig'ildon qaynashini to'xtatadi va oshqozonda kislota darajasini kamaytiradi.



Bodring sharbati. Bu ichimlikka teng miqdorda mineral suv qo'shib iste'mol qilish juda foydali. Xohishga ko'ra unga yalpiz va apelsin bo'lagini ham qo'shish mumkin. Bunday ichimlik ko'tarilgan qon bosimini tushirishga xizmat qiladi.

Sabzi sharbati. Beta-karotina boy bo'lgan ushbu ichimlik immunitet-

Biroq shuni unutmaslik kerakki, har bir iste'mol o'z me'yorida bo'lishi lozim. Bu sharbatlarni kun davomida ko'p miqdorda ichish yaramaydi. Ba'zi kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga esa man etiladi. Shuning uchun sog'lig'idan shikoyat qilgan kishilar bu ichimliklarni mutaxassis tavsiyasi bilan iste'mol qilgani ma'qul.

Dilbar ASOMOVA,
IIV Markaziy poliklinikasi bo'linma boshlig'i, podpolkovnik.

ni oshiradi, yiringli yaralar bitishini tezlashtiradi, tish emalini tiklaydi, gemoglobinni oshiradi, ko'z pardasi holatini yaxshilaydi. Yangi siqilgan sabzi sharbati ovqat hazm qilish jarayoni buzil-



ganda yordam beradi, jigar va buyraklardagi toshlarning organizmdan tabiiy chiqishiga hissa qo'shadi. Bunday ichimlik asab tizimi uchun foydali bo'lib, uni mustahkamlashga va bardoshlilikni oshirishga yordam beradi.

Lavlagi sharbati. Bu eng foydali ichimliklardan biri bo'lib, 12 turdagi vitamin, kletchatka va minerallarni o'z ichiga oladi. Yangi siqilgan lavlagi sharbati tarkibida jigar uchun foydali bo'lgan



betain bo'lib, u organizmdan toksin va radionuklidlarni chiqarishga yordam beradi. Ushbu ichimlik o't pufagidagi toshlarni eritish xususiyatiga ega. Shuningdek, qon bosimini tushiradi va yengil surgi vositasi hisoblanadi.

OFTOB URISHIDAN SAQLANING!

Oxirgi yillarda xalqimiz orasida anomal sovuq yoki anomal issiq degan tushunchalar paydo bo'ldi. Xo'sh, anomal issiq inson tanasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Anomal issiq natijasida tana qizib ketadi va qon tomirlari ochiladi. Bu qon bosimining pasayishiga olib keladi va yurak qonni tanaga haydash uchun qattiqroq ishlay boshlaydi. Natijada tanada toshmalar, oyoqlarda shishlar paydo bo'ladi. Shu bilan birga, terlash holati yuzaga kelib, organizmda suyuqlik va tuzning yo'qotilishi natijasida tanadagi almashinuv balansini buziladi.

Issiq urishi natijasida inson organizmida bosh aylanishi, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, tana haroratining yuqori bo'lishi, o'tkir holatlarda hushdan ketish, mushakning

og'riqli qisqarishi, charchoq kabi belgilar kuzatiladi. Xavfli tomoni, agar qon bosimi juda pasaysa, yurak xuruji xavfi ham ortadi.

Uzoq vaqt quyosh ta'siri ostida qolgan odam salqin joyga o'tkazilishi, suvni sachratib sepish orqali tanasining sovutilishi, suv ichishi kerak. Agar salqin joyga o'tgach, yarim soatda soviy olsa, uning holati xavotirli emas. Aks holda, bu issiq urishi hisoblanadi va «Tez yordam»ga qo'ng'iroq qilish lozim.

Keksalar va yurak xastaligi kabi uzoq davom etadigan ka-



sallikka chalinganlarning issiqqa dosh berishi qiyin. Bolalar va kam harakatchan odamlar ham xavf guruhiga kiradi. Bulardan tashqari, nevrologik kasalliklari bor odamlar issiqlikni tahlil qila olmasligi va undan qochmasligi natijasida yomon holatlarga tushishi mumkin.

Oftob urishidan saqlanish va xavfsiz bo'lish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish zarur bo'ladi:

- ko'p suv ichish va sersuv oziq-ovqatlar iste'mol qilish;
- soya va salqin joylarda ko'proq bo'lish va kunning issiq vaqtlarida sayohatlarni kamaytirish;
- keng, havo o'tkazadigan kiyimlarni kiyish;
- muntazam iliq dush qabul qilish;
- spirtli ichimliklarni ichmaslik;
- tashqarida jismoniy ishlar miqdorini kamaytirish;
- quyoshdan himoyalovchi krem-lardan foydalanish.

Rustam DAMINOV,
Qashqadaryo viloyati IIB Tibbiyot bo'limi SENM boshlig'i, mayor.



ПУТЕШЕСТВИЙ ПО УЗБЕКИСТАНУ



В рамках активно развивающейся программы внутреннего туризма Управление внутренних дел области организовало увлекательный экскурсионный тур для сотрудников и их семей. Эта замечательная инициатива позволила участникам не только сплотиться и отдохнуть, но и глубже познакомиться с богатейшим историческим и культурным наследием родного края.

Участники посетили архитектурный комплекс «Султон Саодат», Музей истории и культуры Термеза, а также мавзолей Хакима ат-Термизи, где получили подробную и интересную информацию о его жизни, духовной деятельности и богатом наследии, внесшем значительный вклад в исламскую цивилизацию.

Знакомясь с комплексом «Султон Саодат», участники узнали много нового об архитектуре и традициях древних мастеров. Атмосфера комплекса, словно ожившая летопись духовной жизни, перенесла гостей в далекое прошлое.

Незабываемые впечатления оставило посещение Музея истории и культуры Термеза. Его экспозиция охватывает период от первых поселений до современности. Здесь представлены уникальные артефакты: предметы быта, монеты, керамическая посуда, документы и другие

свидетельства исторического развития региона.

Такие совместные выезды по объектам культурного наследия расширяют кругозор, обогащают духовно, способствуют укреплению семейных ценностей и взаимопонимания. Для сотрудников органов внутренних дел, чья служба связана с высоким уровнем стресса, подобные туры становятся возможностью восстановить внутреннее равновесие и получить заряд положительных эмоций.

Культурно-просветительские мероприятия, проводимые в рамках программы «Путешествуй по Узбекистану!», способствуют развитию внутреннего туризма, укреплению семейных связей, формированию чувства гордости за Родину и популяризации здорового образа жизни.

Феруза РАХМОНКУЛОВА,
соб. корр.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ (21-27 июль)



Қўй. Ҳафтанинг илк кунлари деярли ҳар жабҳада сизга омад кулиб боқади. Яхшигина даромадга эга бўлишингиз мумкин. Атрофдагиларга яхши кайфият улашинг, бошига ташвиш тушганларни қўллаб-қувватланг. Оила аъзоларингиз ва қадрдонларингизга эътиборли бўлишни унутманг.



Бузоқ. Сизни қизиқтирадиган ва катта таваккалчилик талаб қиладиган иш бўйича таклиф келиб тушиши мумкин. Натижасига тўлиқ ва қатъий ишонч бўлсагина уни қабул қилинг.



Эгизаклар. Оила аъзоларингизга яқинроқ бўлишга, улар учун кутилмаган совғалар тайёрлашга бағишланг. Парҳезга мукка тушмаган маъқул, бу соғлиқнинг ёмонлашувига олиб келиши мумкин. Шанба ва якшанба кунларини тоза ҳавода сайр қилиб, фаол ҳаракатда ўтказинг.



Қисқичбақа. Ҳафта бошида эҳтиёткор бўлинг. Ҳафта ўрталарига бориб ҳужжатлар билан боғлиқ муаммо юзага келиши эҳтимоли юқори. Шунингдек, дўстлар орасидаги миш-мишларга сабабчи бўлмай десангиз, сирларингизни ҳеч кимга айтманг.



Арслон. Ёдингиздан чиққан танишлар яна ҳаётингизга кириб келади. Бу ҳафта ўз ғояларингизни раҳбарият билан ўртоқлашиш учун омадли палла бўлиб, уларнинг маъқулланиши эҳтимоли юқори. Барча ишларни режадагидан кўра кўпроқ ва яхшироқ амалга ошириш учун имконият етарли.



Паризод. Бу ҳафта сизни баъзи кўнгилсизликлар кутмоқда. Агар уларга фалсафий нигоҳ билан қарасангиз, тез орада ҳаётингизда янги омад эшиклари очилиши мумкин. Пул маблағларини йўқотишни истамасангиз, ҳозирча ҳеч кимга қарз бермай турганингиз маъқул. Яхшиси кўмак сўраганларга нафақат моддий тарафдан, балки тўғри маслаҳат билан ҳам ёрдам кўрсатинг.



Тарози. Сизни янги ва омадли танишувлар кутмоқда. Хизмат жойида эса белгиланган вазифаларни ўз ўрнида ва вақтида бажариш тавсия этилади. Оилада маиший масалалар билан боғлиқ келишмовчиликлар юзага келиши мумкин. Ўз ташаббусингиз билан уларни оқилона бартараф этишга ҳаракат қилинг.



Чаён. Шу кунларда иш юзасидан бир қанча таклифлар келиб тушиши мумкин. Уларни қабул қилишдан олдин, ҳар бир жиҳатни синчиклаб ўрганиб, пухта ўйлаб кўринг. Фарзандларингиз ҳаётидаги муҳим ҳодисаларни ўтказиб юбормаслик учун улар билан ишончли муносабат ўрнатишга ҳаракат қилинг.



Ўқотар. Ҳафта бошида амалга оширган ҳар бир ишингиз унумли ва баракали бўлиши кутилмоқда. Бир қатор муҳим ишларни амалга оширасиз. Изланувчанлик, интилувчанлик фазилатларини сақлаб қолсангиз, ўқишда ҳам, ишда ҳам зафарлар кучасиз. Шахсий ҳаётингиз бутунлай ўзгариб, орзу қилган натижаларга эришасиз.



Тоғ эчкиси. Мазкур йил сиз учун турли воқеа ва ҳодисаларга бой бўлади. Табиатан меҳнатсевар бўлганингиз туфайли молиявий жиҳатдан анча ўнгланиб оласиз. Йил ўртасида омадли лойиҳалар бошланиши кутилмоқда. Сиздаги омадни кўргач, хайрихоҳлар ҳам кўпаяди. Дам олиш кунлари ҳордиқ чиқаришга ҳаракат қилинг.



Қовға. Келаётган ҳафтанинг биринчи ярми сиз учун омадли кечиши кутилмоқда. Шу боис ҳаракатни қийин юмушлардан бошланг. Янгиликка интилиш, ўқиш ва ўрганиш нуфузингизни оширади. Шанба ва якшанба кунлари сафар ва саёҳат учун қулай вақт.



Балиқ. Бутун ҳафта давомида яқинларингиз, оилангиз билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиш учун кўп куч сарфлашингизга тўғри келади. Содир бўладиган кескинликни юмшатишга ҳаракат қилинг. Ушбу даврда янги режалар устида бош қотирмаганингиз маъқул.

ZAMONAVIY XATARLAR

Mobil telefonlar bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ular nafaqat muloqot qilish va aloqa vositasi, balki mobil bank, onlayn xaridlar uchun yordamchi, uygʻotgich, kalendar, soat kabi koʻplab vazifalarni bajaradi.



Hozirgi hayotni bir qator qurilma va moslamalarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi, biroq texnologiyalarning rivojlanishi insonning psixologik holati va ruhiy salomatligiga zarar yetkazishi ham mumkin. Ekspertlarning aytishicha, smartfonga nosogʻlom bogʻliqlik inson bosh miyasiga salbiy taʼsir koʻrsatib, psixologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Nomofobiya (ingl. nomophobia, yaʼni mobile-phonephobia soʻzlari-dan olingan) – qoʻl telefonisiz yoki undan uzoqda qolish qoʻrquvi.

Nomofobiya koʻpincha faoliyati telefon bilan bogʻliq boʻlgan kishilar – HR-mutaxassis, sotish boʻyicha menejer, marketolog, blogger

yoki jurnalistlar orasida rivojlana boshlaydi. Biroq bunda xatoga yoʻl qoʻyib, ushbu xastalikni kasbiy kasallikka yoʻyishadi. Har qanday holatda ham, uning belgilari deyarli har bir telefon egasida kuzatiladi.

Nomofobiya sabablari.

Bu, eng avvalo, smartfonni barcha muhim narsalar: maʼlumotlar, pul operatsiyalari, xaridlar, muloqot markaziga aylantirgan zamonaviy texnologiyalardir. Shu bois koʻpchilik telefon-dan uzoqlashishi bilan oʻzini hamma narsani birdaniga yoʻqotgandek his qiladi.

Yana bir sababi – insonning shaxsiy xususiyatlari bilan bogʻliq psixologik holat. Nomofobiya muloqotga, vaqtini chogʻ qilishga va

NOMOFOBIYA – XXI ASR KASALLIGI

xavfsizlikka boʻlgan ehtiyoj, oʻzini oʻzi yuqori baholashga intilish hamda oʻz maqsadlari

va harakatlaridan chetlashgan holda, boshqalarning hayotini zimdan kuzatish



Kasallik belgilari. Telefonga bogʻliqlik quyidagi xatti-harakatlarda namoyon boʻladi:

* telefondan juda uzoq, hatto bir necha soatlab foydalanish. Oʻqish va ish ziyoniga ijtimoiy tarmoqlar va turli oʻyinlarga koʻp vaqt sarflash;

* telefonga tez-tez qarash odati. Beixtiyor amalga oshiriladigan harakatlar, masalan, oʻtkazib yuborilgan qoʻngʻiroqlar, yangi xabar, bildirish va ogohlantirishlar hamda ilovalarni muntazam ravishda tekshirish;

* yonida doimo quvvatlash moslamasini olib yurish, telefonni quvvatlash uchun mos joylar va qurilmalar qidirish;

* virtual muloqotning hayotdagi muloqotdan ustun qoʻyilishi;

* telefondan uzoqlashganda kuchayib boruvchi xavotir va sarosima;

* kechalari telefonni tekshirish uchun uygʻonish va boshqa.

odati tufayli kelib chiqadi.

Kasallik eng zoʻraygan paytda telefonga bogʻliqlikning psixologik belgilari: badjahllik, jizzakilik, serzardalik, asabiylik, jazava va sarosimaga tushish holatlari ham kuzatilishi mumkin.

Nomofobiyaning oldini olish uchun psixologlar bir muddat gadgetlardan foydalanmaslikni, shuningdek, real hayot va oʻzingiz bilan muloqotdan zavq olishga oʻrganishni tavsiya qilishadi.

Uyda yoki ishda har qanday qurilmadan yiroq boʻlgan dam olish zonasini yaratish mumkin. Bunday joylarda kamida 10–15 daqiqa oʻtirib, atrofni, tovush va iforlarni his qilishga harakat qiling. Keyin telefonsiz kechiradigan vaqt oraligʻini tobora uzaytirib boring.

Koʻproq toza havoda sayr qiling, sport, fitnes bilan shugʻullaning, velosiped haydang. Farzandlaringizga koʻproq vaqt ajrating, toki ular ham gadgetlarga bogʻlanib qolmasin. Bolaning qiziqish va qobiliyatlariga eʼtibor qaratib, birga dam olishni rejalashtiring, oʻz hissiyotlaringiz bilan oʻrtoqlashing. Oʻz misolingizda unga haqiqiy olam qiziqroq va turli-tuman ekanini koʻrsating. Birgalikdagi oʻyinlar va oilaviy tamaddilar, doʻstlar bilan uchrashuv va sport bilan shugʻullanish – bunday zavq va baxtni telefon his ettira olmaydi.

Agar ushbu bogʻliqlik bilan mustaqil kurasha olmasangiz, zudlik bilan mutaxassisga murojaat qilish tavsiya etiladi. Chunki nomofobiya – bu shunchaki odat emas, balki inson hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan jiddiy kasallikdir. Muammoni oʻz vaqtida anglash va bartaraf etish oʻta muhim.

Dildoraxon FATTAYEVA,
hamshira.
Gulchehra AZIMOVA
tarjimasi.



MUASSIS: OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir oʻrinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Masʼul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari boʻyicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi gʻaznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan roʻyxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk koʻchasi 9-uy.

Buyurtma № 1886.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44610 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar koʻchasi 1^A-uy.